

D.U.Mamadiyarova

**“TEMIR METABOLIZMINING HOMILADORLIK
MUDDATLARIGA XOS XUSUSIYATLARI”**

MONOGRAFIYA

Samarqand - 2026

UO‘K: 6.61.612.084.111.9

“Temir metabolizmining homiladorlik muddatlariga xos xususiyatlari”:
Monografiya / D.U.Mamadiyarova-Samarqand, 2026.-118 b.

Mualliflar:

Mamadiyarova D.U.- Samarqand davlat tibbiyot universiteti fiziologiya kafedrası v.b.dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

Karabayev A.G.- Samarqand davlat tibbiyot universiteti patologik fiziologiya kafedrası mudiri, t.f.d., dotsent.

Hayitov D.G’- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedrası dotsenti, biologiya fanlari doktori.

Monografiya Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy kengashining majlisida tasdiqlangan, _____-sonli bayonnoma _____ 2026 yil.

SamDTU ilmiy kengash kotibi

U.U.Ochilov

Monografiyada homiladorlikning turli muddatlarida va turli tarkibli ozuqalar bilan oziqlantirilgan ona organizmidagi temir metabolizmi va unda ishtirok etuvchi omillarning qondagi dinamik ko‘rsatkichlari ifodalangan.

Unda muallif homiladorlikning turli muddatlarida temir metabolizmini baholovchi ko‘rsatkichlar hamda ularga parallel ravishda gipoksiya faktorining dinamikada o‘zgaruvchan ekanligini isbotlagan.

Monografiya materiali fiziologlar, patofiziologlar va akusher-genikologlarda qiziqish uyg‘otadi.

D.U.Mamadiyarova 2026

QISQARTMA SO‘ZLAR

Fe-temir

Zn-rux

JSSST -Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti

HFE- temirning yuqori identifikatsion omili

OIT - oshqozon-ichak trakti

DMT-1 -ikki valentli metal tashuvchi

FRT- ferroportin

DsytB - o‘n ikki barmoqli ichak b-sitoxromi

IRP- temirni regulyasiya qiladigan oqsil

IRE- temirni regulyasiya qiladigan element

PE- Preeklampsiya

HO‘SS- homilaning o‘sishi sekinlashuvi sindromi

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I BOB. HOMILADORLIKNING TURLI DAVRLARIDA TEMIR METABOLIZMI MUAMMOSINING ZAMONAVIY HOLATI	
§1.1. Temir metabolizmining zamonaviy tahlili.....	6
§1.2. Temir mikroelementini organizmda qayta aylanishi.....	13
§1.3. Temir metabolizmining boshqarilishi.....	16
§1.4. Patologik holatlarda temir metabolizmi.....	37
II BOB. HOMILADORLIKNING TURLI DAVRLARIDA TEMIR METABOLIZMINI ANIQLASHNING USLUBIY ASOSLARI	
§2.1. Tadqiqot materiallarining umumiy tavsifi.....	56
§2.2. Tadqiqot usullari.....	60
III BOB. HOMILADORLIKNING TURLI MUDDATLARIDA ONA QUYONLARDA TEMIR METABOLIZMINING KO‘RSATKICHLARI	
§3.1. Odatiy ozuqa berilgan guruhlarda qondagi Fe miqdori ko‘rsatkichlari.....	64
§3.2. Yetarli bo‘lmagan ozuqa berilgan guruhlarda qondagi Fe miqdorining dinamikasi.....	66
§3.3. Temir preparati berilgan guruhlarda qondagi Fe miqdorining dinamikasi.....	68
§3.4. Rux preparati berilgan guruhlarda qondagi Fe miqdorining dinamikasi.....	71
§3.5. Temir va rux preparati berilgan guruhlarda qondagi Fe miqdorining dinamikasi.....	74
IV BOB. TEMIR METABOLIZMIDA ISHTIROK ETUVCHI OMILLARNING QONDAGI KO‘RSATKICHLARI	
§4.1. Tajriba guruhlarida qondagi transferrin va ferritin miqdorining ko‘rsatkichlari.....	76
§4.2. Tajriba guruhlarida eritrotsit va gemoglobin miqdorining qondagi miqdorining ko‘rsatkichlari.....	81
§4.3. Tajriba guruhlarida qondagi oqsil va gematokrit miqdorining ko‘rsatkichlari.....	85
§4.4. Tajriba guruhlarida qondagi HIF-1 α ko‘rsatkichlari.....	88
MUHOKAMA.....	92
XULOSALAR.....	103
ADABIYOTLAR	
RO‘YXATI.....	104

KIRISH

Dunyoda 2 milliard odam (30% dan ziyod aholi) temir tanqisligi kamqonligi kasalligiga chalingan bo'lib, temir metabolizmining buzilishiga olib kelgan. Temir tanqisligi reproduktiv yoshdagi ayollar, homilador ayollar va turli yoshdagi bolalarda uchraydigan muammolar ichida etakchi o'rinni egallamoqda. JSST ma'lumotiga ko'ra, «... iqtisodiyoti yaxshi rivojlangan davlatlarda homilador ayollarda temir tanqislik holatlari 18-25 % ga, iqtisodi kam rivojlangan mamlakatlarda 80 % ga etadi...»¹. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra hayotining birinchi haftasida vafot etgan chaqaloqlarning onasida 74,7 %, hayotining birinchi oyida vafot etgan chaqaloqlarning onasida 43,5 % temir etishmovchiligi holatlari aniqlangan. Er yuzida yashirin temir tanqisligi 92% ni tashkil etib, shundan asosan homilador ayollarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda temir etishmovchiligi bilan bog'liq barcha holatlar latent oldi, latent va temir etishmovchiligiga bo'linadi. Homiladorlikning so'nggi trimestrining oxiriga kelib, prilament temir etishmovchiligi aniqlanadi. Homiladorlik vaqtida ayol organizmida maxsus o'zgarishlar qonning ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Homiladorlikning III trimestrining oxiriga kelib, homilador bo'lmagan vaqtiga nisbatan plazma 50% gacha, eritrotsitlar massasi 25-30% gacha ortadi. Bu esa o'z navbatida gemoglobin konsentratsiyasining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun homiladorlikning turli davrlarida temir metabolizmi ko'rsatkichlarining turli oзуqalar va homiladorlik muddatlari bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tibbiyotning muhim muammoli masalalaridan biridir.

Jahonda temir tanqisligi holatlarining homiladorlik va tug'ish jarayoniga, tug'ruqdan keyingi davrga, homila va yangi tug'ilgan chaqaloqning holatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha qator maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, temir metabolizmining oзуqa miqdori, tarkibiga hamda temir va temirni so'rdiruvchi preparatlarga bog'liq jihatlarini aniqlash, homiladorlikning turli muddatlariga hamda temir va temirni surdiruvchi preparatlarga xos temir

¹ World Health Organization. Nutritional anaemias: tools for effective prevention and control. Geneva: World Health Organization. – 2017. – 83 p.

ko'rsatkichlarini aniqlash, homiladorlikning muddatlarini hamda ozuqaning miqdori va tarkibini hisobga olgan holda Hif-1 α ning temir metabolizmida tutgan o'rnini aniqlash va xususiyatlarini baholash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, sog'liqni saqlash tizimini jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, reproduktiv salomatlik buzilishi natijasida yuzaga keladigan oqibatlarining oldini olish va barvaqt aniqlash bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «....birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash....»² kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, homiladorlikning turli davrlarida temir metabolizmining xususiyatlarini o'rganish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

I BOB. HOMILADORLIKNING TURLI DAVRLARIDA TEMIR METABOLIZMINING XUSUSIYATLARI ANIQLASH

§1.1. Temir metabolizmining zamonaviy tahlili

Temir tanqisligi, temir tanqisligi holatlari va temir tanqisligi anemiyasi soʻnggi 20 yil ichida temir almashinuvi mexanizmlarini tushunishda erishilgan ulkan yutuqlarga qaramay, butun jahon miqyosida dolzarb muammo boʻlib qolmoqda (Potemina T.E., Volkova S. A., Kuznetsova S. V., Pereshein A.V., 2020). JSST maʼlumotlariga koʻra turli darajadagi temir tanqisligi deyarli 4 mld odamda, temir tanqislik kamqonligi esa taxminan 2 mld odamda uchraydi.

Temir-hujayralar boʻlinishi va oʻsishida hamda metabolizm jarayonida muhim rol oʻynaydigan 15 ta mikroelementlarning biri hisoblanadi (Petrov V.N., 1998, Finberg K.E., 2011). Temir prostetik ferment guruhlarining tarkibiga kirib, nuklein kislotalar biosintezida, energetik metabolizm jarayonida va hujayralar boʻlinishida ishtirok etadi. Hujayra ichida temirning etishmasligi hujayra siklining toʻxtashi va apoptoz yoʻli bilan hujayralar oʻlimiga olib keladi (Polefka T.G., Bianchini R.J., Shapiro S. 2012, Powers JM., 2016). Organizmda temir oqsillarning muhim biologik vazifalarida muhim oʻrin tutadi. Bular tarkibiga koʻra biometallar deb ataladi (Petrov V.N., 1998, Finberg K.E., 2011, Sussman H., 1992.).

Hayvonlar va odam organizmida temir almashinuvi va biodinamikasi yaxshi oʻrganilgan. Temirning metabolizmi va katabolizmi organizmdagi qiziqarli metabolizmlardan biridir. Soʻrilgan va oqsillar bilan bogʻlangan temir prostetik fermentlar guruhiga kiradi, yaʼni oqsil bilan kovalent bogʻlangan va bu oqsilning biologik faolligida asosiy rol oʻynaydigan oqsil boʻlmagan komponent hisoblanadi (Idelson L.I., 2005). Temir energiya almashinuvida nafas olish zanjirida ishtirok etadi. SHuningdek hujayralarga kislorod va ulardan karbonat angidridni tashuvchi hisoblanadi. Organizmdagi metabolitik jarayonlarda temirning biologik roli oqsillarning biologik funksiyalari gemoglobin va mioglobin bilan oʻlchanadi. Gemoglobin va mioglobin murakkab oqsil-xromoproteidlarning kichik guruhi hisoblangan gem saqlovchi proteinlar sinfiga kiradi. Bu oqsillarning oʻziga xos xususiyati Fe^{2+} oksidlanish darajasini oʻzgartirmasdan kislorod bilan vaqtinchalik

birikma hosil qilishidir. Gemoglobin qizil qon hujayralarida joylashgan bo'lib, kislorodni o'pkadan hujayralarga, karbonat angidridni to'qimadan o'pkaga o'tkazadi. Bu funksiya qonning asosiy bufer tizimi bo'lgan organizmdagi kislota-asos muvozanatini tartibga solishga javobgardir. Mioglobin asosan mushak to'qimalarida joylashgan bo'lib, uning katta miqdori miokardda to'plangan bo'ladi. Intensiv mushak ishida mitoxondrial oksidlanish uchun kislorod bilan ta'minlanadi va kislorodni hujayra ichidagi mitoxondriyalarga kiritadi (Pavlov A.D., 2011, Radzinskiy, V.E., 2015).

Temir miqdori organizmda barqaror bo'lib, tashqi tomondan tushadigan temir bilan bir xilligini saqlab qoladi. Sog'lom organizmda 3-4 gr atrofida temir (4 gr erkaklarda, 3 gr ayollarda) bo'lib, uning asosiy qismi, ya'ni 2100 mg qon hujayralari tarkibida va suyak ko'migida, 600 mg i har xil tipdagi makrofaglarda, 1000 mgi jigar hujayralarida, 400 mg atrofida esa boshqa hujayralarning tarkibida bo'ladi. Amaliy jihatdan metabolitik faol temir oqsil bilan bog'langan holatda bo'ladi, past konsentratsiyada erkin ion holatida ham uchraydi. Temirning eng katta qismi gemoglobin tarkibida aniqlanadi. Kamgina qismi hujayra oqsillarini sintez qilish uchun sarflanadi yoki transferrin bilan bog'langan holda qonda aylanadi (Rumyansev A.G., 2015). Temir metabolizmi unikal jarayon bo'lib, eng kuchli oksidlovchi sifatida organizmning tabiiy himoyachisi hisoblanadi (Idelson L.I., 2005). Temir gomeostazi uning ichakda so'rilishi va mavjud bo'lgan temirning qayta ishlatilishi orqali regulyasiya qilinadi. Temir almashinuvining o'ziga xos xususiyati so'rilgandan keyin uning chiqarilishining fiziologik mexanizmlarining yo'qligidir (Konovodova E.N., 2008, 2011). Erkaklarda kunlik temir yo'qotish taxminan 1 mg, ayollarda esa 2 mg ni tashkil etadi. Ushbu miqdorning 3/2 qismi safro bilan oshqozon ichak orqali yo'qotiladi. Ko'chib tushgan epiteley hujayralari va qon tarkibidagi eritrotsitlar bilan va 3/1 qism siydik bilan va epidermisning diskvomatsiyasi bilan yo'qotiladi. Temirga bo'lgan ehtiyoj o'sish davrida fiziologik yo'qotishlar va sarflanishlar bilan izohlanadi. Odatda tana temirni iste'mol qilish va yo'qotish o'rtasidagi muvozanatni boshqarib turadi. Katta yoshdagi odamlarda 15-20 mg ni tashkil qiladi. Suyak iligi va boshqa

organlarga kiradigan temirning taxminan 90 % i taloq va jigarining retikuloendotelial tizimi makrofaglarida eritrotsitlar parchalanish paytida ajralib chiqadigan endogen temirdir (Kryachko O.V., Taran A.M.,2018).

Hozirgi kunda temir metabolizmida ishtirok etuvchi 20 dan ortiq oqsillar bo'lib, ulardan asosiylari transferrin, transferrin retseptorlari, oqsil tashuvchilari va ferrooksidazalar hisoblanadi (El Guindi W, Pronost J, Carles G, Largeaud M, El Gareh N, Montoya.Y, Arbeille P., 2004, Pena-Rosas J.P., 2015, Strai S.K., 2002). Ferroportin, transferrin, ferritin, laktoferrin va gepsidin temir metabolizmining asosiy oqsil regulyatorlari hisoblanadi (Lamont I.L., 2002, Krause A., 2000). Ferroportin to'qimalarda temirning asosiy transmembran tashuvchisi bo'lib xizmat qiladi. U o'n ikki barmoqli ichakdan plazmaga temirni eksport qiladi. Bundan tashqari makrofaglar va hepatotsitlardan ajralib chiqqan va plazmadagi temirni transferrin bilan bog'lab beradi (Lopez A., Cacoub P., Macdougall I. C., Peyrin-Biroulet, L., 2016). Transferrin qon zardobidagi β globulinga tegishli bo'lib, ichaklardan temirni zahiraga tashilishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu oqsilning sintezi organizmda temir miqdoriga qarab jigarda amalga oshadi: temir miqdori kamayishi bilan uning sintezi oshadi. Transferrin temirning hujayradan tashqari tashuvchisi bo'lib, uning so'riladigan (ichaklarda) va ajraladigan joylaridan temirni biriktirib oladi. Jumladan, jigar va taloqda eritrotsitlar katabolizmi tufayli erkin holatga o'tgan temirni biriktirib oladi. Transferrin normada qon zardobida 2-4 g/l ni tashkil etib, uning miqdorining oshishi to'qimalarda temir defitsetini va jigarining oqsil sintetik funksiyasining buzilganligini yoki temir yuklanishining pasayishini anglatadi. Zardobdagi transferrin temir metabolizmining 3 ta standart ko'rsatkichlariga bog'liq. Bular:

1. Zardobdagi temir miqdori;
2. Qon zardobining umumiy temir bilan aloqa qilish imkoniyati.
3. Transferrinning temir bilan to'yinganlik darajasi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlari hujayralarda sarflanayotgan temir miqdorini ko'rsatadi. Bunda temir transferrin bilan bog'liq bo'ladi. Biroq qon oqimida bir qancha temir miqdori boshqa plazma oqsillari bilan masalan, albuminlar bilan

aylanib yurishi mumkin. Bunday holat hujayralarga toksik ta'sir ko'rsatadi (Ucar M.A., 2019, Wang Y., Wu Y., Li T., Wang X., Zhu C., 2019).

Ikkinchi turida temir bilan to'yinmagan transferrinning zahirasini bildiradi, u odatda 50-70 mmol/l ni tashkil etadi. SHuning uchun organizmda temir etishmovchiligida qon zardobidagi temir miqdorining pasayishi va transferrinning temir bilan to'yinganlik darajasi ortadi. Temirning haddan ortiq ko'p yuklanishi esa buning aksini ko'rsatadi, ya'ni qon zardobidagi temir miqdori ortadi, transferrin bilan bog'langan temir miqdori kamayadi. Transferrinning temir bilan to'yinganlik darajasining ko'rsatkichlari qon zardobidagi va qon zardobining umumiy temir bilan aloqa qilish imkoniyatining o'zaro nisbati normada 20-40 % ni tashkil etadi. Temir etishmovchilik holatlarida transferrinning temir bilan to'yinish darajasi pasayadi, temirning ortiqcha yuklanishida u sezilarli darajada normadan oshadi (50 % dan ko'p) (SHextman M.M., 2004). Transferrin orqali iste'mol qilishga etkazib beriladigan temirning o'tilizatsiyasi hujayraning membranasida joylashgan maxsus retseptorlar orqali amalga oshiriladi. Transferrin-1 retseptorlari MM-185000 Dalton bo'lgan va ikkita transferrinni bog'lash joyi bo'lgan transmembranali glikoproteindir. Bu oqsilning vazifasi temirga boy transferrinning endotsitozi bo'lib, endotsitoz orqali temir kompleksi transferrin bilan birga hujayra ichiga kiradi. Hujayra ichida temirning ko'p bo'lmagan qolgan qismi ferritin molekulasi tarkibida xavfsiz va notoksik shaklda saqlanib turadi (Brittenham G.M., 2003, Finberg K.E., 2011, Lozoff B., 2013). Bitta transferrin molekulasi o'ziga 2 ta temir atomini bog'lab olishi mumkin. Organizmdagi yashirin temir tanqisligida transferrinning temirga to'yinganlik darajasi pasayadi. Ferritin ichak va platsentada temirni o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Temirni transferrin bilan bog'lash va uni onadan homilga o'tkazuvchi mediator hisoblanadi. Zaxira temirning funksional maqsadi qon zardobidagi temir konsentratsiyasini doimiy bir xil darajada ushlab turishdir. Ferritin tanadagi umumiy temir miqdorining 16-20 % ini bog'laydigan, temirni saqlaydigan va temirga ehtiyoj tug'ilganda uni chiqaradigan hujayra ichidagi katta molekulali oqsil bo'lib, apoferritindan iborat va u temir gidofosfat yadrosini qobiq sifatida o'rab oladi (Goonewardene I.M., 2018, Tucker D.M.,

Sandstead H.H., Penland J.G. et al., 2004). Sogʻlom odamlarning qon zardobida ham oz miqdorda ferritin mavjud boʻlib, uning asosiy manbai jigar va taloqdagi makrofaglar va qondagi monotsitlar hisoblanadi. Fiziologik sharoitda qon zardobidagi ferritin miqdori temir zahirasi aks ettiradi. Qon zardobidagi ferritinning 40 mkm/l ga kamayishi temir etishmovchiligini anglatadi. Birlamchi va ikkilamchi gemaxromotoz uchun uning miqdori 1000 mkm/l ga oshishi xarakterli. Yalligʻlanish oʻchogʻida yoki oʻsmalarda uning miqdorining oshishi kuzatilib, giperferritinemiya aʼzo va toʻqimalarda massiv nekroz keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham qon zardobidagi ferritin yalligʻlanish, oʻsma kasalliklari va destruktiv jarayonlar rivojlanmagan taqdirdagina toʻqima temir zahiralarining koʻrsatkichi boʻlib xizmat qilishi mumkin (Lomova N.A., Dubrovina N.V., Kan N.E., Tyutyunnik V.L. 2017, Finberg K.E., 2011, Lopez A., Cacoub P., Macdougall I. C., Peyrin-Biroulet, L., 2016). Zarurat tugʻilganda zahiradagi temir ferritin shaklida chiqariladi, transferrin bilan bogʻlanadi va suyak koʻmigiga yoʻnaltiriladi. Homiladorlikning birinchi trimestrida temir etishmovchilik anemiyasida zahiradagi temirning yoʻqolishini plazmadagi ferritinning miqdori boʻyicha aniqlash mumkin (Bobrov S. A., Repina M.A., Klitsenko O.A. 2011, Stuklov N.I., Semenova E.N., 2013). Gepsidin temir almashinuvining asosiy regulyatori va anemiya rivojlanishining muhim omili boʻlib hisoblanadi. U ferroportin bilan bogʻlanib, uning funksional aktivligini pasaytiradi, natijada turli hujayra va toʻqimalarga temirning kirishini bloklay qoʻyadi. Gepsidin entrotsitlarga taʼsir etib, bazalateral membrana orqali temir tashilishini va temir soʻrilishini pasaytiradi. Bundan tashqari gepsidin makrofaglardan erkin temir ajralishini bloklaydi va qizil suyak koʻmigida uning xususiyatlarini pasaytiradi. Suyak koʻmigiga temir tushishi etishmasligi eritroid hujayralar etilishining buzilishiga va gem sintezining pasayishiga olib keladi. SHuning uchun ham gepsidinning organizmda koʻpayib ketishi anemiya rivojlanishiga sabab boʻladi (Aiari M., Demixov V.G., Mirov I.M., Zinoveva E.N., Juri-na O.N., Demixova E.V. 2016, Aiari Manel, Demixov Valeriy Grigorevich, Mirov Igor Mixaylovich, Lebedev Vyacheslav Vyacheslavovich, Inyakova Natalya

Viktorovna, Golovitsina Olga Aleksandrovna, Rumyansev Aleksandr Grigorevich, 2017).

Homiladorlik davrida protein almashinuvining buzilishi temir tanqisligi tufayli yuzaga keladi va funksional ravishda temir almashinuvi bilan bog'liq holda amalga oshadi (gipoalbuminemiya, disproteinemiya), alfa-2 va beta-globulinlar, seruloplazmin kontsentratsiyasi oshadi, gamma-globulinlar darajasi pasayadi, bu esa gamma-globulinlar darajasining pasayishiga olib keladi, shish rivojlanadi (Malkoch A.V., 2013).

Normada temir metabolizmi odam organizmida hech qachon sintezlanmaydi. Antinatal davrda homila onadan yo'ldosh orqali 300 mg atrofidagi temirni oladi, bola tug'ilgandan so'ng oziq-ovqat orqali temir zahiralarini zudlik bilan to'ldiriladi: dastavval sut mahsulotlari tarkibidagi laktoferrindan, keyinchalik temir gem va o'simlik tarkibidagi temir hisobiga to'ldiriladi. YOsh normasiga etkandan so'ng, temir miqdori 4 g ni tashkil etib, doimiy miqdorni saqlanib turadi. Bu muvozanat buzilsa, temir tanqisligi yoki temirning oshib ketishi (gemaxromotoz) rivojlanadi. Fiziologik holatda har kuni umumiy temirning 0,05 % i (2,5 mg dan kamrog'i) yo'qoladi. Bu yo'qotishlar teri va oshqozon-ichak yo'lidagi epiteleyning ko'chishi hamda terlash orqali yo'qotiladi. Xuddi shu miqdordagi (1-2 mg) temir so'riladi (Petuxov V.S., 2009, Galy B., 2010). Temirning so'rilishi o'n ikki barmoq ichakning shilliq pardasi orqali amalga oshadi. Ozuqadagi temir DMT-1 transportyori yordamida entrotsitlarga etkaziladi, so'ngra qon plazmasiga tushadi yoki entrotsitlarda saqlanib turadi. Bu jarayon gepsidin tomonidan tartibga solinadi. Organizmga oziq ovqat bilan 10-15 mg temir tushadi, shundan 1-1,5 mgi so'riladi. Tananing temirga bo'lgan ehtiyoji ovqatlanish bilan qoplanadi, ammo ma'lum davrlarda u ko'payishi mumkin va tanqislik holatlari rivojlanishi mumkin (Strutynskiy A.V., 2012). Agarda organizmida temir miqdori ortiqcha bo'lsa, temir entrotsitlarda saqlanib turadi, keyinchalik ularning deskvomatsiyasi tufayli ko'chib tushgan epiteley bilan organizmdan chiqarib yuboriladi (Brittenham G.M., 2003, Finberg K.E., 2011, Stevens G.A., 2013). Sedropeniya holatida temir saqlanib

qolinmaydi, qon oqimiga kiradi va transferrin bilan bogʻlanadi. Temirning transferrin bilan bogʻlanishi uchun ikkita sharoit kerak boʻladi:

1. Temirning entrotsit tarkibidan chiqishini ferroportin taʼminlashi;
2. Gefestin yordamida ikki valentli temir uch valentliga aylanishi.

Bu mexanizmlar buzilganda, temirning soʻrilishi izdan chiqadi va ogʻir gepaxrom anemiyaga olib keladi (Beutler E., 2011, Fleming, R. E., Ponka, P., 2012, Muñoz Gómez M., Bisbe Vives E., Basora Macaya M., García Erce JA, Gómez Luque A., Leal-Noval S.R., 2015.). Transferrin tarkibidagi temir darvoza venasi orqali jigarga tushadi, uning bir qismi gepatotsitlarda zahira sifatida saqlanadi. Hujayra ichidagi temir esa ferritin bilan birikadi. Temirning katta qismi gemoglobin sintezi uchun suyak koʻmigiga etkaziladi, kam qismi esa transferrin retseptorlari boʻlgan hujayralarga etkaziladi (Beutler E., 2011).

§1.2.Temir mikroelementini organizmda qayta aylanishi

Har kuni odam biologik suyuqliklar va oshqozon-ichak traktining (OIT) deskvamatsiyalangan epiteliysi bilan taxminan 1 mg temirni yoʻqotadi. Ozuqa bilan tushgan temir oshqozon-ichak traktida aynan bir xil miqdorda soʻrilishi mumkin. Chunki temir tanaga faqat oziq-ovqat bilan kiradi. Tana kuniga 1 mg temirni yoʻqotadi va 1 mg soʻriladi. Inson tanasida eritropoez eng faol jarayonlardan biri boʻlib, suyak iligi soniyada 2 million qizil qon tanachasini, kuniga 173 milliard hujayrani ishlab chiqarish qobiliyatiga ega. Muddatini oʻtagan eritrotsitlarni yoʻq qilish jarayonida taxminan 40 mg temir ajralib chiqadi, u makrofaglar tomonidan oʻtilizatsiya qilinadi va yana gem hosil qilish uchun sarflanadi. Organizmda temirni singdirishning maxsus mexanizmi mavjuddir, ammo temirni fiziologik chiqarib yuborish mexanizmi mavjud emas (Konovodova E.N., 2012).

Temirning organizmga kirishi yuqori darajada integratsiyalashgan jarayon boʻlib, u tananing individual xususiyatlariga va kiruvchi temirning ovqat hazm qilish shakllari bilan bogʻliq omillarga qarab, uning oshqozon-ichak traktida soʻrilishi bilan taʼminlanadi. Temir eng faol ravishda oʻn ikki barmoqli ichakda va ingichka ichakning yuqori qismida soʻriladi. Temirni soʻrilish jarayoni

quyidagilarga bog'liq: 1) uning oziq-ovqat tarkibidagi miqdori; 2) biologik etarlilik; 3) tananing ehtiyojlari.

Temirning ichakda fiziologik sharoitda so'rilishi ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) shilliq qavat hujayralarining mikroelementlarni tutishi; 2) membranani tashishi; 3) hujayra ichiga o'tishi va hujayradagi zahiralarning shakllanishi; 4) hujayradan qon oqimiga chiqarish (Tixomirov A.L., Sarsaniya S.I., Nochevkin E.V., 2011, Strai S.K., 2002). Homiladorlik etarli miqdorda temir zahiralari fonida sodir bo'lsa, unda birinchi trimestrda ichakning so'rilishi kamayadi, temir zaxiradan iste'mol qilinadi. II va III trimestrlarda eritrotsitlar massasi oshadi, homila va platsenta rivojlanadi, bu esa temir so'rilishini kuchaytiradi, shuning uchun temir zahirasi kamayadi, bu uning so'rilishini rag'batlantiradi. Homiladorlikning oxiriga kelib mikroelementga kunlik ehtiyoj kuniga 6 mg ga oshadi (o'rtacha 4,6 mg / kun) (Konovodova E.N., 2008, Dvoretzkiy L. I., 2012, Daniyalova X.M., 2013, Dragun I.E., Mixaylova O.I., 2008, Dokueva R.S., 2014). Qon zardobidagi temirning hammasi globulin transferrin bilan bog'langan bo'ladi (Kodensova V.M., 2014, Kodensova V.M., Vrjesinskaya O.A., 2013).

Suyak ko'migidagi temir qon oqimiga tushadi, normal hayot kechiruvchi eritrotsitlar tarkibida 3-4 oy aylanadi. So'ngra taloq va jigarda parchalangan eritrotsitlardan maxsus makrofaglar yordamida gemoglobin degradatsiyasi yuz berib, temir erkin holatda ajraladi, so'ngra qon plazmasiga tushadi va transferrin bilan bog'lanadi. Transferrin tarkibidagi temir ferroportin bilan bog'lanadi. Bu esa makrofag ichidan temirning plazmaga chiqishini ta'minlaydi. SHuningdek serruloplazmin ikki valentli temirni uch valentliga aylantiradi. So'ngra temir yangidan qon plazmasining transferrinli kompartmentiga qo'shiladi va qaytadan o'tilizatsiya qilinadi, ya'ni gemoglobinni sintez qiluvchi suyak iligining eritroid hujayralariga etkaziladi. Eritropoez uchun kuniga taxminan 20-30- mg temir kerak bo'ladi, vaholanki ichakdagi temirning kunlik so'rilishi atiga 1-2 mg tashkil etadi. Bu esa eritropoez uchun etarli bo'lmaydi, shuning uchun organizm eritropoez uchun kerakli bo'lgan kunlik 20-30 mg temirni taloq va jigar makrofaglari orqali

qon aylanish tizimiga qaytariladi. Bu jarayon retserkulyasiya, ya'ni temirni qayta ishlash deb ataladi. Bu esa o'z navbatida temirning ichakdan so'rilishiga nisbatan muhim fiziologik ahamiyat kasb etadi (Brittenham G.M. 2003, Finberg K.E., 2011, Ucar MA., 2019). Organizmda temirning fiziologik holatda ozgina yo'qotilishi juda kam bo'lib, uning to'qimalardagi zahirasi shunchalik kattaligidan, temir etishmovchiligi 3 yilda rivojlanishi mumkin. Kundalik ozuqa bilan tushadigan temirning (10-20mg) 1-2 mg igina so'riladi. Bu esa temirning to'g'ridan to'g'ri oksidlovchi vosita sifatida to'qimalar uchun xavfli ekanligidan dalolat beradi. Temir tanqisligi organizmda oziq ovqat bilan etarli ta'minlanmaganda, ichakda so'rilish buzilganda, o'tkir yoki surunkali qon ketishlarda paydo bo'lishi mumkin. Biroq bu jarayonlarda organizmning fiziologik ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda temirni zahirada saqlab qolishga harakat qiladi. JSST mutaxassislari tomonidan 2004 yildan beri qon zardobidagi ferritin konsentratsiyasi 12-15 mg dan kam bo'lsa, anemiya deb belgilanish qaror qilindi. Ferritin konsentratsiyasining ortishi himoya mexanizmi sifatida ko'rilishi lozim. Chunki ferritinning asosiy vazifasi temirni bog'lab olishdir. Ko'pgina tadqiqotchilar homiladorlik davrida anemiya rivojlanishida asosiy rolni temir tanqisligi o'ynaydi deb ta'kidlashadi, biroq barcha homiladorlarda ham temir etishmovchiligi aniqlanmaydi. Shuning uchun ham ularda temir preparatlarini qo'llash klinik va gematologik ta'sirga ega bo'lmaydi. Biroq temir so'rilish mexanizmini o'rganish shuni ko'rsatadiki, entrotsitlar to'sig'idan faqat ikki valentli temir so'riladi, chunki ular ferritin bilan bog'lanadi, uch valentli temir esa ferritin bilan bog'lanmaydi (Lozoff B., 2013, Menon MP., 2009).

Temir metabolizmini amalga oshiruvchi oqsillarga quyidagilar kiradi: ferroportin (FRT), ikki valentli metal tashuvchi (DMT-1), o'n ikki barmoqli ichak b-sitoxromi (DsyB), temirni regulyasiya qiladigan oqsil (IRP) va temirni regulyasiya qiladigan element (IRE), HPE oqsili, gefestin va gepsidin. Oxirgi yillarda antibakterial peptid gepsidin temir metabolizmining salbiy regulyatori ekanligi aniqlangan. U turli hujayralar va to'qimalardan temirni tashilishini, entrotsit, makrofag va platsentadan temir tashilishini bloklab qo'yish qobiliyatiga

ega. Temir o'z navbatida homiladorlikning erta muddatlaridan boshlab, gemli oqsillar (gemoglobin, mioglobin) va gemsiz oqsil fermentlar sifatida Fe-S kompleksi biokimyoviy reaksiyasining regulyatori hisoblanadi. Temir tanqisligida hujayralarning energiya almashinuvi jarayonlari yomonlashadi. Mitoxondrial nafas olishdagi elektronlar tashilishi buziladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari muvozanati va DNK sintezi izdan chiqishi kuzatiladi. Temirning etishmasligi ham, ortiqcha bo'lishi ham xavflidir. Uning label fraksiyasi natijasida reaktiv kislorod shakllanishi tufayli to'qimalarga toksik ta'sir ko'rsatishi ortadi. Temir etishmasligi anemiyasi gemoglobin va qon zardobidagi temir konsentratsiyasidan qat'iy nazar ferritinning 30 mkg/l gacha tushishi bilan tavsiflanadi.

§1.3. Temir metabolizmining boshqarilishi

Temir inson tanasi hayotidagi regulyasiya qiluvchi eng muhim omil bo'lib sanaladi. Temirning biologik qiymati, uning funksiyalarini ko'p qirraliligi va boshqa metallarning murakkab biokimyoviy jarayonlari, energiya almashinuvi, nafas, gemopoez, DNK sintezi, hujayralar bo'linishi, immunobiologik va oksidlanish qaytarilish reaksiyalari, apoptoz va boshqa jarayonlarda o'z aksini topadi. Temir gemoglobin hosil bo'lishi va eritrotsit O₂ ni a'zo va to'qimalargacha etkazilishini hamda mioglobin tarkibida kislorod yig'ilishini amalga oshiradi. Temir saqlovchi va temirga bog'liq fermentlar sistemasi (aerob metabolizm fermentlari, oksidlanish–qaytarilish gomeostazi, to'qimalarning nafas olishi) inson tanasining barcha hujayralarida mavjud bo'lib, ular energiyani aerob yo'l bilan hosil qilib beradi. Temir miqdorining etarlicha bo'lishi bosh miya po'stloq qismi neyronlari, kardiomiotsitlar va gepatotsitlarning normal ishlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Temir oliy asab faoliyati va insonning hissiy shaxsiy tomonlariga ta'sir qilishi ta'kidlangan. Jumladan, temir nerv sinapslarida implusning paydo bo'lishida, asab tolalarining mielenizatsiya jarayonida ishtirok etadi va gipotalamus ishiga to'laqonli ta'sir ko'rsatish kabi jarayonlarni amalga oshiradi. Temir bosh yarim sharlarining ensa bo'lagiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim elementlardan bo'lib, uning etishmovchiligi xotira buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari temir immun javob reaksiyalarida qatnashib, organizmning immun

homeostazini saqlab turishda muhim ahamiyat kasb etadi. Temir androgenlar, glyukokortikosteroidlar va yodni o'z ichiga olgan qalqonsimon bez gormonlari sintezi uchun ham o'ta zarur hisoblanadi. Temir organizmdan faol ravishda ajratib chiqarilmaydi. U ichaklar epiteliysining ko'chib tushishi hamda teridagi ko'p qavatli epiteliyning deskvوماتsiyasi orqali chiqarib yuborilishi isbotlangan. SHuni alohida aytib o'tish joizki, erkin holatdagi temir katalitik ta'siri orqali radikallar hosil bo'lishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida hujayra membranalarining peroksidativ shikastlanishiga va hujayra o'limiga sabab bo'ladi. So'ngi o'n yillikning yutuqlardan biri temir metabolizmini molekulyar genetik tekshiruvlarini o'tkazish orqali amalga oshirilishidir. Bunga ko'ra temirning yuqori identifikatsion omili (HFE), ferroportin va ferroyuvinel temir metabolizmining yangi oqsillari sifatida aniqlandi. Biroq sichqonlarda o'tkazilgan eksperimentda gepsidin ekspressiyasining etishmasligi to'qimalarda temirning og'ir yuklanishiga olib kelishi aniqlandi. YAllig'lanishning o'tkir fazasi oqsili bo'lgan gepsidin temirni so'rilishi va undan foydalanishning asosiy regulyatori ekanligi aniqlandi. Gepsidin asosan surunkali kasalliklarda faollashishi ko'zga tashlanadi. Tabiatda temirning 2 ta kimyoviy shakli mavjud: bu ikki va uch valentli temir oksidi hisoblanadi. Oshqozonning kislotali muhitida Fe^{3+} mutsinlar bilan murakkab birikma hosil qiladi va Fe^{3+} -mutsin kompleksi o'n ikki barmoqli ichakni ishqoriy muhitini ta'minlaydi va o'n ikki barmoqli ichak entrotsitlarining apikal membranasidan o'tishini osonlashtiradi. Mobilferrin integrendan Fe^{3+} ni qabul qiladi va entrotsit sitoplazmasiga o'tkazadi. Fe^{3+} asosiy transport shakli entrotsit yoki makrofagdan chiqqandan so'ng, organ va to'qimalarga etkaziladi. Transferrinning bir qismi sifatida temir portal tomir tizimi orqali jigarga, suyak ko'migiga va boshqa organlarga etkaziladi. U erda temir o'z ichiga olgan oqsillarni (gemoglobin, mioglobin, sitoxromlar, laktoferrin, transferrinlar) sintezi uchun sarflanadi. Sarf etilmay qolgan temir ferritin yoki gemosedirin molekulalarida to'planadi. SHunday qilib, ferritin asosiy temir ombori oqsili bo'lib, temirni zaxarli bo'lmagan eruvchan, biologik foydali shaklda saqlashda muhim rol o'ynaydi. So'ngi yillarda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, temir almashinuvining universal regulyatori

gepsidin gormoni hisoblanadi. Gipoksiya holatlarida suyak ko'migida eritropoetik faollik oshadi. Bu esa makrofagal hujayralardagi zahiradagi temirning tezkor mobilizatsiyasi va gemoglobin ishlab chiqarish uchun sarflanishga olib keladi [Pavlov A.D., 2004, Parodi E, Giraudo M.T, Davitto M., 2012).

Temirning so'rilishi, zahiralarda saqlanishi va retserkulyasiya jarayonlari jigar hujayralarida ishlab chiqariladigan maxsus gormon gepsidin tomonidan tartibga solinadi. Gepsidin kichik molekulyar og'irlikdagi (25 ta aminokislota) gormon bo'lib, temirning hujayradan tashqaridagi konsentratsiyasini boshqaradi. Bu gormon birinchi marta C.H. Park va hammualliflari tomonidan 2001-yilda yoritilgan. Gepsidin jigarda sintezlanib, qon zardobi va siydikda aniqlanadi. Har qanday yallig'lanish kasalliklarida uning miqdori oshadi. Ko'p miqdorda gepsidinni sintez qiladigan sichqonlarda temir tanqisligi anemiyasi rivojlanishi aniqlangan. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, gepsidin surunkali kasalliklar kamqonligi patogenezida bevosita mediator bo'lib, temirning ingichka ichakdan so'rilishini to'g'ridan to'g'ri kamaytiradi va makrofaglardan chiqishini bloklaydi. Gepsidinning ta'sir qilish mexanizmi ferroportin funksiyasini bloklaydi va shu yo'l orqali entrotsitlar, makrofaglar va gepatotsitlardan temirning chiqishi bloklanadi [Breymann C.,2001, Fleming, R. E., Ponka, P., 2012, Muñoz Gómez M., Bisbe Vives E., Basora Macaya M., García Erce JA, Gómez Luque A., Leal-Noval S.R, 2015). Refrakter anemiya jigar adenomasi misolida ko'rsatilgan bo'lib, ushbu o'smani olib tashlash anemiyaning regressiyasiga olib kelishi isbotlangan. Olib tashlangan o'sma to'qimalarining o'zida gepsidinning i-RNK sining ko'payishi aniqlangan. Sichqonlar ustida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, gepsidin etishmovligi bo'lganda jigar to'qimalari va boshqa a'zolarining temir bilan ortiqcha to'yinishi, gepsidin ko'p bo'lsa og'ir temir tanqisligi kamqonligi rivojlanadi. 2010 yilda Rotchetti J. va hammualliflari gepsidinni kodlovchi gendagi mutatsiyaning etilmagan gemaxromotozining fenotipik ko'rinishi mavjudligi bilan bog'liqligi mavjudligini ko'rsatib berdi. Bu ham gepsidinning temir metabolizmidagi markaziy rolini ko'rsatadi (Delyagin V.M., CHernov V.M., 2016). Gepsidinning ta'sir qilish mexanizmi entrotsitlar, makrofaglar va gepatotsitlardan temir ionlarini

eksport qiluvchi yagona transport oqsili bo'lgan ferroportin funksiyasini bloklashdan iborat. Gepsidin hujayraning sirtqi membranasida joylashgan ferroportin molekulalari bilan birlashadi va gepsidin-ferroportin kompleksini hosil qilib hujayra ichiga kiradi va ferroportin lizosomalar orqali parchalanadi. Ferroportin funksiyasi yo'qotilgandan so'ng temir entrotsitlar, makrofaglar va hepatotsitlar ichida to'planib qoladi, ya'ni temirning so'rilishi, qayta ishlanishi va zahiradan chiqarilishi bloklanadi. Bu esa qon zardobidagi temirning pasayishiga olib keladi (Brittenham G.M. 2003, Funk F., 2010, Muñoz Gómez M., Bisbe Vives E., Basora Macaya M., García Erce JA, Gómez Luque A., Leal-Noval S.R., 2015). Fiziologik holatlarda jigar hujayralari tomonidan gepsidinining ishlab chiqarilishi qondagi temir miqdori va jigar to'qimasining kislorod bilan ta'minlanish darajasi bilan regulyasiya qilinadi. Qonda temir konsentratsiyasining oshishi gepsidin ishlab chiqarilishining ko'payishiga olib keladi. Natijada temirning hujayra ichidagi sekvestrlanishiga, bu esa gipoferrimiya rivojlanishiga olib keladi. Temir konsentratsiyasining qonda pasayishi gepsidin ishlab chiqarilishini pasaytiradi, bu esa o'z navbatida ferroportin funksiyasining tiklanishiga, so'rilish va qayta ishlash jarayonlarining faollashishiga va qondagi temir miqdorining oshishiga olib keladi. SHunday qilib, temirni iste'mol qilinishi va yo'qotilishi o'rtasida normal muvozanat saqlanadi (Nobre LN., 2017, Kassebaum NJ., 2017, 172; Parkin P.C., 2017). Patologik sharoitlarda, ya'ni organizmning patologik omillar, infeksiya yoki o'sma antigenlari tomonidan ta'sirlanishi natijasida gepsidinining ishlab chiqarilishi, yallig'lanishga qarshi sitokinlar, ya'ni IL-6 yordamida regulyasiya qilinadi. Eksperimental modullar va ko'ngillilarga temir ichiga lepopolisaxaridlar yoki yallig'lanishga qarshi sitokinlar (IL-6) yuborilganda, gepsidin ishlab chiqarilishining ko'payishi, bu esa gipoferrimiya va eritropoezga temir tanqisligining uzoq davom etishi ko'rsatilgan, ya'ni yallig'lanish anemiyasi bilan bir xil bo'lgan anemiya rivojlanishi aniqlangan (Muñoz Gómez M., Bisbe Vives E., Basora Macaya M., García Erce JA, Gómez Luque A., Leal-Noval SR., 2015, Mitchinson C., 2019).

Gipoksiyaga sabab bo'luvchi omil HIF doimo buyraklar tomonidan hosil qilinadigan, kislorodni sezuvchi oqsil kompleksidir. U birinchi marta 1992-yilda eritropoetin regulyatori sifatida tasvirlangan [Xabib O. N., 2001]. Ushbu regulyator omilning faolligi gipoksiya vaqtida kuchayadi. HIF ning asosiy vazifasi kislorod etkazib berishni oshiradigan oqsillar sintezini oshirishdan iborat. HIF ikkita subbirlikdan iborat: α va β subbirlikdan iborat. α subbirlik to'qimalarda kislorod tanqislini tartibga soladi. HIF-1 α konsentratsiyasining oshishi hujayralarning gipoksiyaga moslashishini ta'minlaydigan va eritropoezni, angiogenezni, glikolitik fermentlarni rag'batlantiradigan genlar ekspressiyasining faollashishiga olib keladi. Bundan tashqari genlar ekspressiyasini regulyasiya qilib, temir metabolizmining asosiy oqsillarini kodlovchi genlarni ekspressiyasini tartibga soladi. Masalan, HIF-1 α konsentratsiyasining oshishi gepcidin sintezining pasayishiga olib keladi. Gipoksik holatlarda HIF-1 α PHD2 fermenti tomonidan gidroksillanmaydi, barqaror bo'lib qoladi va to'planadi. Natijada HIF-1 α va HIF-1 β birlashadi. Hozirgi kunda HIF nafaqat buyrak hujayralari, balki jigar hujayralari tomonidan eritropoetin ishlab chiqarilishini tartibga solishi aniqlandi. Jigar hujayralarida kam bo'lganligi uchun eritropoetin ishlab chiqarilishini boshqara olmaydi. Hozirgi vaqtda HIF ning biologik roli kardiologiya, onkologiya, nevrologiya va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb mavzudir (Skoczynska A., 2009).

Bugungi kunda temir etishmovchiligi bilan bog'liq barcha holatlar latent oldi, latent va temir etishmovchiligiga bo'linadi. Prilalent, yashirin va temir tanqisligi zaxiradagi temirning eritrotsitlar orqali tashilishining kamayishidan kelib chiqadi. Bunda biokimyoviy va klinik belgilar kuzatilmaydi. Homiladorlikning so'nggi trimestrining oxiriga kelib, prilalent temir etishmovchiligi aniqlanadi. Bu zahiradagi temir miqdorining pasayishi bilan xarakterlanadi [16; 8-22 b.]. JSST ma'lumotlariga ko'ra alementar temir etishmovchiligi sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatadigan 10 ta isbotlangan omilning biridir (World Health Organization. Nutritional anaemias: tools for effective prevention and control. Geneva: World Health Organization. – 2002).

Ona qoni - ona va bola o'rtasidagi muhim bog'lovchi vosita bo'lib, hujayra va plazma tarkibi homilaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Homiladorlarda temir tanqisligi homiladorlik va tug'ish jarayoniga, tug'ruqdan keyingi davrga, homila va yangi tug'ilgan chaqaloqning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [CHeremenina N.A., Sidorova K.A., Veremeeva S.A., 2010, Rumyansev A. G., 2006, Aylamazyan E.K., 2010, Apresyan S.V., 2009. Natsionalnaya programma optimizatsii vskarmlivaniya detey pervogo goda jizni v Rossiyskoy Federatsii. - M., -2009, Dokueva R.S., 2014). Temir tanqisligi va uning ekstremal darajasi – oqsil almashinuvining buzilishiga olib keladi.

Homiladorlikdan tashqari reproduktiv yoshdagi ayollar uchun fiziologik temirga bo'lgan ehtiyoj 18 mg ni tashkil qiladi, homiladorlik davrida qo'shimcha 15 mg ga ko'payadi (Tixomirov A.L., Sarsaniya S.I., Nochevkin E.V., 2011). Har bir homiladorlik, tug'ruq va laktatsiya davrida temir yo'qotilishi 700 mg dan 1 g gacha bo'ladi. Organizm bunday zahiralarni 4-5 yil ichida tiklashga qodir (Tayupova I.M., 2015) va agar ayol bu muddatdan oldin yana tug'sa, kamqonlik muqarrar ravishda rivojlanadi (Nikitin E.N., 2011, Kryachko O.V., Taran A.M., 2018).

Homiladorlik va preklampsiyadagi kamqonlikda temir preparatlarini qo'llashdagi ko'rsatkichlarini o'rganilganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Ammo gemogramma ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, gemoglobin konsentratsiyasi JSST doirasiga mos kelmasligi , ya'ni < 110 gr bo'lsa talqin etilmaydi. Biroq adabiyotlarda eklampsiya bilan vafot etgan ayollarning yarmida gemoglobin konsentratsiyasi 120-140 gr dan oshganligi qayd etib o'tilgan.

Homiladorlik paytida va konsepsiyadan oldin temirning normal muvozanatini saqlash uchun mikroelementning etarli zahirasi (birinchi trimestrda SF 69 mkg/l dan kam bo'lmagan) va oziq-ovqat bilan ta'minlangan temir miqdori etarli bo'lishi kerak [Delyagin V.M., CHernov V.M., 2016, Gext I.A., Artemeva G.B., 2013, Aristova I.V., 2010, Aristova I.V., 2011, Kodensova V.M., Vrjesinskaya O.A., Sokolnikov A.A., 2012, Burlev V. A., 2010).

Hayz ko'rishning to'xtashi sababli taxminan 160 mg temirni tejashni hisobga olinganda, homiladorlikning oxiriga qadar qo'shimcha 800-1200 mg mikroelement talab qilinadi [Burlev V. A., 2010, Goroxovskaya G.N., 2007, Bittencourt P. L., 2010).

Homilador bo'lmagan ayollarda temir etishmovchilik sindromida, ichakda temirning so'rilishi 2-5 baravar, homilador ayollarda esa deyarli 10 barobar ortadi, bu esa homilador ayollarda temirga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Homiladorlik davrida temirning normal muvozanatini saqlash uchun mikroelementning etarli zaxirasi (birinchi trimestrda SF 69 mkg / l dan kam bo'lmagan) va oziq-ovqat bilan ta'minlangan biologik mavjud bo'lgan temir miqdori etarli bo'lishi kerak [Delyagin V.M., CHernov V.M. 2016, Gext I.A., Artemeva G.B., 2013, Aristova I.V., 2010, Serov, V.N., 2011, Kodensova V.M., Vrjesinskaya O.A., Sokolnikov A.A., 2012, Burlev V. A., 2010).

Temir tanqislik anemiyasi dunyoda eng ko'p tarqalgan kasallik va anemiyalar orasida eng ko'p uchraydi (90%). Temir tanqisligining tarqalishi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda temir tanqisligi rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda bir necha barobar kam uchraydi. Rivojlanayotgan davlatlarda temir tanqisligi va temir tanqisligi kamqonligi homilador ayollarning taxminan 60 % ida uchraydi. Rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 14-15% ni tashkil etadi. Tug'ish yoshidagi ayollarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda taxminan 50% va 11 % (Ucar MA., 2019).

Temir tanqisligi va uning ekstremal darajasi-oqsil almashinuvining buzilishiga olib keladi. Preeklampsiya (PE), platsenta etishmovchiligi (PI), abort va erta tug'ilishda 20 dan 40% gacha, 40% dan baland darajaga ko'tariladi. 25% homilaning o'sishi sekinlashuvi sindromi (HO'SS), yuqumli asoratlarning 12% gacha, tug'ruq paytida va tug'ruqdan keyingi davrda patologik qon yo'qotish chastotasi va hajmining ko'payishi 10% hollarda, mehnat faolligining zaifligi 10 dan 15% gacha, gipogalaksiya tug'ilganlarning 38% ida qayd etilgan (Bobrov S. A., Repina M.A., Klitsenko O.A., 2011, Petuxov V.S., 2009, CHeremenina N.A.,

Sidorova K.A., Veremeeva S.A. , 2010, Apresyan S.V., 2009, Lineva, O.I., 2012, Xoxlova N. S, Semenyutin V.V., 2021, Uijterschout L. 2013, Beutler E., 2011, Richardson D. R., 2005, Beaumont C., Karim Z., 2013, Casanueva E., 2003, SHalina, R.I., 2014). Ushbu asoratlar temir tanqisligi anemiyasi bilan homilador ayollarda rivojlanib, ona va homila uchun oqibatni yomonlashtiradi. Bundan tashqari, antenatal davrda temirning etarli darajada cho'kishi ham neonatal davrning borishiga ta'sir qiladi [Aylamazyan E.K., 2010, 2012, Aristova I.V., 2010, Strai S.K., 2002). YAshirin temir tanqisligi bu organizmda temir miqdorining kamayish sindromi bo'lib, bunda qondagi eritrotsit va gemoglobin ko'rsatkichlari normada bo'ladi. YAshirin temir tanqisligida sedropenik sindromning rivojlanishi bilan to'qimalarda temir saqlovchi fermentlar faolligining pasayishi kuzatiladi. Klinik jihatdan yashirin temir tanqisligi ta'mning buzilishi, mushaklarning kuchsizligi, teri va uning ortiqlarida distrofik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Yashirin temir tanqisligining laboratorik mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Gemoglobin va eritrotsitlarning normal darajada bo'lishi;
2. Qon zardobidagi temirning 40 mg dan kam bo'lishi;
3. Qon zardobidagi transferrinning kamayishi;
4. Transferrining temir bilan to'yinganlik darajasining pasayishi;

Bizning tadqiqotlarimizda (Rumyansev A.G., Delyagin V.M., CHernov V.M., 2007) moliyaviy jihatdan yaxshi ta'minlangan bolalarda temir tanqisligi 3,2% ga teng bo'ladi. Moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lmagan oilalarning bolalarida 2,6 barobar ko'p uchraydi (8,3 %). Badavlat oilalarning o'smir yoshidagi o'g'il bolalarida temir tanqisligi 17-18%, o'spirin o'g'il bolalarda 66 %, qizlarda esa 234 %. YAshirin etishmovchiligi o'g'il bolalarda 352 %, qizlarda 649 % ni tashkil qiladi (Kotsyubenko A.A.,2013). Temir ko'p sarflanadigan holatlarda (infeksiya, eritrotsitozga zarurat tug'ilganda) latent temir etishmovchiligi darrov temir etishmovchiligi anemiyasiga aylanadi. Homiladorlik davrida temirga bo'lgan ehtiyoj keskin oshadi. Ayollarda kamqonlikning rivojlanayotgan davlatlatlarda 37-

75 % ni, rivojlangan mamlakatlarda 18 % ni tashkil etadi (Rısmiyatov, A.Z., 2008).

Hozirgi vaqtda tananing himoyasini oshirishga qaratilgan vositalarni, shu jumladan o'sish stimulyatori sifatida temir va turli xil kelib chiqadigan kompleks preparatlarni izlash va takomillashtirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda (Baev O.R., 2012, Tyutyunnik V.L., Kan N.E., Lomova N.A., Dokueva R.S., 2017, Egorova O.V., 2015).

Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - $P < 0,05$, *** - $P < 0,001$); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - $P < 0,05$, ^^ - $P < 0,01$, ^^^ - $P < 0,001$); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - $P < 0,05$, °° - $P < 0,01$, °°° - $P < 0,001$)


Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, homiladorlikning 7 kunlik muddat bilan 14 kunlik muddat solishtirilganda Fe miqdorini 3,0 mkmol/l ga, 21 kunlik muddat boshlang‘ich muddat bilan solishtirilganda 2,3 mkmol/l ga. Boshlang‘ich va oxirgi muddatlar o‘zaro solishtirilganda Fe miqdori 5,9 mkmol/l ga kamayganligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar homiladorlikning 28-kunida keskin pasayishi qayd etildi.

Homiladorlikning 21 kunlik muddatiga kelib, temir miqdorining ko‘rsatkichlari 14 kunlik muddatga nisbatan sezilarli darajada oshganligi va oxirgi muddatga kelib keskin pasayib ketishi aniqlandi (3.6-rasm).



3.6-rasm. Odatiy ozuqaga rux preparati qo‘shib berilgan guruhlarda temir miqdorining dinamikasi

Homiladorlikning 7 kunlik muddatiga nisbatan 14 kunlik muddat solishtirilganda temir miqdorining 1,1 barobar kamayganligi, 14 kunlik muddatga nisbatan 21 kunlik muddatda 0,98 barobar ortganligi, 21 kunlik muddatga nisbatan 28 kunlik muddatda 1,15 barobar pasayganligi aniqlanadi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Odatiy ozuqaga rux preparati qo‘shib berilgan guruhlar homiladorligining turli muddatlarida temir miqdorining o‘zaro tahlili.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida aytish mumkinki, homilada a’zolarining shakllanishi va homilaning faol tarzda o’sishi homiladorlikning ikkinchi va to‘rtinchi haftasida kuzatiladi. Ushbu muddatlarda onadan homilalarga homilalar ehtiyoji uchun temir ko‘p miqdorda talab etiladi.

Shunday qilib, rux preparatlarini muntazam qo‘llash homilador quyonlarda temir miqdorini barqaror ushlab turish imkoniyatini bermaydi. Jumladan, homiladorlikning uchinchi haftasida rux preparatlarini qo‘llash temir miqdorining o‘zgarishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Ammo, Zn preparatidan unumli foydalanish homilador quyonlarda temir almashinuvida va temir etishmovchiligi anemiyasida samarali hisoblanadi.

§3.5. Odatiy ozuqaga temir va rux preparati qo‘shib berilgan guruhlarda qondagi temir miqdorining dinamikasi.

Temir va rux preparati berilgan guruhda olingan natijalarning ko‘rsatkichlari quyidagi 3.5.1-jadvalda keltirilgan.

3.5.1-jadval

Temir va rux preparati qo‘shib berilgan quyonlar homiladorligining turli muddatlarida temir miqdorining ko‘rsatkichlari

№	Homiladorlik muddatlari	Fe miqdorining ko‘rsatkichlari
1.	7-kun	31,4±1,5 mkmol/l
2.	14-kun	30,6±0,5 mkmol/l***
3.	21-kun	30,5±1,5 mkmol/l***^^^
4.	28-kun	29,2±1,1 mkmol/l***^^^ooo

Eslatma: * - 1-guruh ma’lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - $P < 0,05$, *** - $P < 0,001$); ^ - 2-guruh ma’lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - $P < 0,05$, ^^ - $P < 0,01$, ^^^ - $P < 0,001$); ° - 3-guruh ma’lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - $P < 0,05$, °° - $P < 0,01$, °°° - $P < 0,001$)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, quyonlar temir va rux preparati berilgan quyonlar qon tarkibidagi temirning o‘rtacha miqdori homiladorligining 7 kunida 31,4±1,5 mkmol/l ekanligi aniqlandi. Mos ravishda 14-kunida 30,6±0,5 mkmol/l, 21-kunida 30,5±1,5 mkmol/l, 28 kunida 29,2±1,1 mkmol/l ni tashkil etdi.

Homiladorlikning 7 kunlik muddat bilan 14 kunlik muddat solishtirilganda Fe miqdorini 0,8 mkmol/l ga, 21 kunlik muddat boshlang‘ich muddat bilan solishtirilganda 0,9 mkmol/l ga, boshlang‘ich va oxirgi muddatlar o‘zaro solishtirilganda 2,2 mkmol/l ga kamayganligi aniqlandi.

Temir va rux preparati berilgan guruhda homiladorlikning turli muddatlarida temir miqdorining ko‘rsatkichlari orasida sezilarli farq aniqlanadi. Biroq odatiy ozuqa berilgan guruhlar bilan solishtirilganda homiladorlikning 14-va 21- kunidagi ko‘rsatkichlardan deyarli farq qilmaydi.

Homiladorlikning dastlabki va 14 kunlik muddatlarida temir miqdorining o‘zaro farq-tafovuti 0,8 mkmol/l, 14 kunlik va 21 kunlik o‘rtalaridagi ko‘rsatkich

0,1 mkmol/l ga, 21 kunlik va 28 kunlik muddatda 1,3 mkmol/l ga kamayishi kuzatiladi.

Shunday qilib, temir va rux berilgan quyonlar homiladorligining barcha muddatlarida qondagi temir miqdorining konsentratsiyasi qolgan barcha guruxlarga nisbatan barqarorligini saqladi, ammo 14-21-kunlik muddat oralig'ida qondagi temir miqdori ko'rsatkichlarining deyarli o'zgarmasligini ushbu muddatlarda bu preparatlarni qabul qilishning temir metabolizmiga samarasiz ekanligi bilan izohlash mumkin.

IV BOB. TEMIR METABOLIZMIDA ISHTIROK ETUVCHI OMILLARNING QONDAGI KO‘RSATKICHLARI

§4.1. Odatiy ozuqa, ozuqa etishmovchiligi, temir, rux, Fe va Zn preparati berilgan guruhlarda qondagi transferrin va ferritin miqdorining ko‘rsatkichlari

Odatiy ozuqa, ozuqa yetishmovchiligi, temir, rux, Fe va Zn preparatlari qo‘shib berilgan guruhda 15 ta oq rangli Xikol zotli quyonlar homiladorligining 7-14-21-28 kunlarida qondagi transferrin miqdorining ko‘rsatkichlari qo‘yidagi jadvalda keltirilgan (4.1.1- jadval).

4.1.1- jadval

Turlicha oziqlantirilgan homilador quyonlar qonidagi transferrin ko‘rsatkichlari

№	Homiladorlik muddatlari	Normal ozuqa berilganda (Transferrin g/l)	Temir preparati berilganda (Transferrin g/l)	Rux preparati berilganda (Transferrin g/l)	Temir va rux qo‘shib berilgan guruh (Transferrin g/l)	Etarli ozuqa berilmagan da (Transferrin g/l)
1	7 kunlik	2,12±0,009	2,2±0,007	2,06667±0,01	2,0±0,003	2,29333±0,009
2	14 kunlik	2,76±0,03** *	2,32±0,03** *	2,52±0,03***	2,4±0,001** **^^^	2,83±0,03** *
3	21 kunlik	3,01±0,007* **^^^	2,72±0,005* **^^^	2,81±0,006** ***^^^	2,67±0,007	3,21±0,004* **^^^
4	28 kunlik	3,61±0,01** *^^^ooo	2,93±0,003* **^^^ooo	3,11±0,003** *^^^ooo	2,76±0,004* **^^^ooo	4,14±0,05** *^^^ooo


Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - P<0,05, *** - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

№ 4.1.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar homiladorligining 7-kunida qon tarkibidagi transferrinning o‘rtacha miqdori 2,12±0,009 g/l ni, temir preparatlari berilganda 2,2±0,007 g/l ni, rux preparatlari berilganda 2,067± 0,01 g/l ga, temir va rux preparati berilgan guruhlarda 2,0±0,003 g/l ni, etarli bo‘lmagan ozuqa bilan

oziqlantirilgan guruhda $2,29 \pm 0,009$ g/l ni tashkil etdi. Homiladorlikning 14-kunida mos ravishda $2,76 \pm 0,03$ g/l; $2,32 \pm 0,03$ g/l; $2,52 \pm 0,03$ g/l; $2,4 \pm 0,001$ g/l; $2,83 \pm 0,03$ g/l miqdorda aniqlandi.

Homiladorlikning 21-kunida birinchi guruxdagi quyonlar qoni tarkibidagi transferrinning o'rtacha miqdori $3,01 \pm 0,007$ g/l ni, temir preparatlari berilganda $2,72 \pm 0,005$ g/l ni, rux preparatlari berilganda $2,80 \pm 0,006$ g/l ni, temir va rux preparati berilgan guruhlarda $2,67 \pm 0,007$ g/l, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $3,20 \pm 0,004$ g/l ni tashkil etdi. Homiladorlikning 28-kunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda quyidagi ko'rsatkichlardan iborat bo'ldi: $3,60 \pm 0,01$ g/l; $2,92 \pm 0,003$ g/l; $3,10 \pm 0,003$ g/l; $2,76 \pm 0,004$ g/l; $4,14 \pm 0,05$ g/l.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, homiladorlik muddatlari oshgani sari qondagi transferrinning miqdori barcha tadqiqot guruhlarida ortib boradi. Jumladan, homiladorlikning erta muddatlariga nisbatan oxirgi muddatlarda ko'rsatkichlar yuqori bo'lishi qayd etildi (4.1-rasm).



4.1-rasm. Turli ozuqalar bilan oziqlantirilgan guruhlarda transferrin miqdorining

dinamikasi.

Odatiy ozuqa berilgan guruhda homiladorlikning 7 kunligiga nisbatan 14 kunligida transferrin miqdori 0,64; 21 kunligida 0,89; 28 kunligida 1,49 g/l ga ortishi qayd etildi. Temir preparati berilgan guruhda bu ko'rsatkichlar 0,12; 0,52 va 0,72 g/l ni tashkil etdi. Uchinchi guruhda bu ko'rsatkichlar: 0,46; 0,74 va 0,95 g/l ga, to'rtinchi guruhda 0,4, 0,67, 0,76 g/l ga, beshinchi guruhda esa 0,54; 0,91 va 1,85 g/l ga teng ekanligi aniqlandi.

Demak, homiladorlikning ilk muddatlarida homilador quyonlar ozuqasiga temir preparatini qo'shib berish transferrin miqdorini oshishiga olib keladi. Rux preparati qo'shib berilgan guruhda esa transferrin miqdori nisbatan kamayishi kuzatiladi. Etarlicha ozuqa berilmagan guruhlarda odatiy ozuqa berilgan guruhlardan farqli o'laroq uning ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi qayd etiladi. Homiladorlikning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi haftalik muddatlarida homilador quyonlar periferik qonidagi transferrinning ko'rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlanadi. Ammo, ozuqasiga Fe va Zn qo'shib berilgan kuzatuvlarda transferrin miqdorining past ko'rsatkichlarda ortib borishi kuzatiladi. Ko'rsatkichlarning bunday ko'rinish olishini temirga nisbatan ruxning antagonist xususiyatini yo'qolishi va sinergezm xususiyatini paydo bo'lishi natijasida temirni faol o'zlashtirilishi natijasida transferringa bo'lgan talabning nisbatan pasayishi bilan izohlash mumkin. SHunday qilib, homiladorlik muddatlariga bog'liq holda barcha kuzatuv guruhlarida periferik qondagi transferrin miqdorining ko'rsatkichlari ortib boradi. Buning sababi homiladorlik muddatlari ortishi bilan homila rivojlanishi tufayli temirga bo'lgan ehtiyojning ortishi bo'lib, odatda homilada qon yaratuvchi a'zolar funktsiya bajara boshlashi ona organizmidagi temir zahirasi sarflanishiga olib keladi. SHuning uchun ona organizmining temirga bo'lgan ehtiyoji oshadi, ushbu ehtiyojning qondirilishi uchun temirni so'rilish jarayoni va uni tashuvchi oqsillar miqdori hamda jadalligi oshishi kuzatiladi.

Ozuqasi bo'yicha ajratilgan barcha guruhlarda homiladorlikning turli muddatlarida qondagi ferritin miqdorining ko'rsatkichlari ham tadqiqotimiz

davomida aniqlandi.

Ushbu guruhda homiladorlikning 7-14-21-28 kunlarida qondagi ferritin miqdorining ko'rsatkichlari qo'yidagi jadvalda keltirilgan (4.1.2- jadval)

4.1.2- jadval

Turlicha oziqlantirilgan homilador quyonlar qonidagi ferritinning ko'rsatkichlari

N	Homiladorlik muddatlar	Normal ozuqa berilganda (Ferritin mkg/l)	Temir preparati berilganda (Ferritin mkg/l)	Rux preparati berilganda (Ferritin mkg/l)	Temir va rux berilganda (Ferritin mkg/l)	Yetarli ozuqa berilgan (Ferritin mkg/l)
1	7 kunlik	103,7±10,6	105,9±16,9	103,1±12,5	107,9±16,9	102,2±12,6
2	14 kunlik	99,3±4,8***	105,1±4,6** *	102,3±4,2** *	104,1±4,6** *	85,1±8,6***
3	21 kunlik	89,3±2,85** *^^^	97,6±2,43** *^^^	92,7±2,05** *^^^	101,6±2,43* **^^^	75,4±2,92** *^^^
4	28 kunlik	63,7±1,30** *^^^°°	74,2±2,48** *^^^°°	61,1±1,28** *^^^°°	89,3±2,48** *^^^°°	58,4±1,25** *^^^°°

Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - P<0,05, *** - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)


Odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda qon tarkibidagi ferritinning o'rtacha miqdori homiladorlikning 7-kunida 103,7±10,6 mkg/l, temir preparati berilganda 105,9±16,9 mkg/l, rux preparati berilganda 103,1± 12,5 mkg/l, temir va rux preparati berilgan guruhlarda 107,9±16,9 mkg/l, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda 102,2± 12,6 mkg/l ga teng ekanligi aniqlandi.

Homiladorlikning 14-kunida birinchi guruhda ferritinning o'rtacha miqdori 99,3±4,8 mkg/l ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich temir preparati berilganda 105,1±4,6 mkg/l ga, rux preparati berilganda 102,3± 4,2 mkg/l ga, temir va rux preparati berilgan guruhlarda 104,1±4,6 mkg/l, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda 85,1 ± 8,6 mkg/l bo'lishi kuzatildi.

Homiladorlikning 21-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qon tarkibidagi ferritinning o'rtacha miqdori 89,3±2,85 mkg/l, temir preparati berilganda 97,6±2,43 mkg/l ga, rux preparati berilganda 92,7± 2,05 mkg/l ni, temir va rux qo'shib berilgan guruhlarda 101,6±2,43 mkg/l ni, etarli bo'lmagan

ozuqa bilan oziqlantirilganda $75,4 \pm 2,92$ mkg/l ni tashkil etdi. Homiladorlikning 28-kunida mos ravishda $63,7 \pm 1,30$ mkg/l ga, temir preparati berilganda $74,2 \pm 2,48$ mkg/l; $61,1 \pm 1,28$ mkg/l; $89,3 \pm 2,48$ mkg/l va $58,4 \pm 1,25$ mkg/l ni tashkil etdi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oziqlanish turidan qat'iy nazar, homiladorlik muddatlari oshgani sari ferritin miqdori kamayib boradi. Biroq, temir va rux preparati berilgan guruhlarda ferritinning miqdori kam darajada kamayib borib, homiladorlikning oxirgi muddatida sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi(4.2 -rasm).



4.2-rasm. Turli ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhlarning homiladorlik muddati bo'yicha ferritin miqdorining dinamikasi.

Homiladorlikning 7 kunlik muddatida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruh ko'rsatkichlariga nisbatan temir preparati berilgan guruhda ferritin miqdori $2,2$ mkg/l ga yuqoriligi, rux preparati berilgan guruhlarda $0,6$ mkg/l ga

kamayganligi, temir va rux preparati berilgan guruhlarda 4,2 mkg/l ga oshganligi va etarli bo'lmagan ozuqa berilgan guruhda 1,5 mkg/l ga kamayganligi aniqlandi.

Homiladorlikning 14 kunlik muddatida bu ko'rsatkichlar 7 kunlikka nisbatan temir berilgan guruhda 1,8 mkg/l, rux preparati berilgan guruhda 3,0 mkg/l ga ortganligini, temir va rux berilgan guruhlarda 4,8 mkg/l ga oshganligi, etarli bo'lmagan ozuqa berilgan guruhda 12,8 mkg/l kam ekanligi qayd etildi.

Homiladorlikning 21 kunlik muddatida esa bu ko'rsatkichlar ikkinchi guruhda 8,3 mkg/l va uchinchi guruhda esa 3,4 mkg/l ga oshganligini, temir va rux preparati berilgan guruhlarda 12,3 mkg/l ga oshganligi, beshinchi guruhda esa birinchi guruhga nisbatan 13,9 mkg/l ga kamayganligi kuzatildi.

Homiladorlikning 28 kunida birinchi guruhga nisbatan ikkinchi guruhda ferritin ko'rsatkichlari 21,8 mkg/l ga va uchinchi guruhda 10,8 mkg/l ga, temir va rux qo'shib berilgan to'rtinchi guruhda 27,2 mkg/l ga oshganligi, beshinchi guruhda 14,9 mkg/l ga kamayganligi aniqlandi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda xulosa qilish mumkinki, homilador quyonlar ozuqasining tarkibiga ko'ra, homiladorlikning muddatlariga bog'liq holatda ferritinning periferik qondagi ko'rsatkichlari pasayib borishi qayd etiladi. Jumladan, homiladorlikning ilk muddati va ikkinchi haftaligida periferik qondagi ferritin miqdorining ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq kamchilikni tashkil etadi. Biroq, homiladorlikning uchinchi haftaligi va oxirgi muddatlarida ferritin miqdorining yaqqol kamayib ketishi ko'zga tashlanadi. Ferritin miqdorining kam ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi temirning to'g'ridan to'g'ri temir zahirasiidan sarflanishiga olib kelishi, homilaning temirga bo'lgan talabi ortishi bilan tushuntirilishi mumkin.

§4.2. Odatiy ozuqa, ozuqa etishmovchiligi, temir, rux preparati, temir va rux preparati berilgan guruhlarda qondagi eritrotsit va gemoglobin miqdorining ko'rsatkichlari.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ozuqaning tarkibidan qat'iy nazar homiladorlikning muddatlari oshgani sayin

eritrotsit miqdorining homiladorlikning oxirgi muddatiga qadar kamayib, oxirgi muddatda (28 kunlik) ortishi va gemoglobin miqdorini kamayib borishi kuzatildi (4.2.1; 4.2.2-jadvallar).

Jadval 4.2.1

Homiladorlikning turli davrlarida eritrotsitlar miqdorining ko'rsatkichlari


№	Homiladorlik muddatlari	Normal oziqa berilganda (T/l)	Temir preparati berilganda (T/l)	Rux preparati berilganda (T/l)	Temir va rux preparati berilganda (T/l)
1	7 kunlik	6,21±0,17	6,33±0,15	6,19±0,12	6,42±0,2
2	14 kunlik	5,42±0,01***	5,66±0,02***	5,84±0,02***	6,21±0,28***
3	21 kunlik	4,9±0,02***^^	5,2±0,07***^^	5,4±0,01***^^	5,97±0,12***
4	28 kunlik	6,06±0,005***^^^°	6,37±0,01***^^^°	5,93±0,01***^^^°	6,51±0,12***

Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - P<0,05, *** - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

№4.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, homiladorlikning 7-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda qon tarkibidagi eritrotsitlarning o'rtacha miqdori 6,21±0,17 T/l ni, temir preparati berilganda 6,33±0,15 T/l ga, rux preparatlari berilganda 6,19± 0,12 T/l ga, temir va rux preparati berilganda 6,42±0,2 T/l ga, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda 6,14± 0,013 T/l ga teng miqdori aniqlandi. Homiladorlikning 14 kuniga kelib, bu ko'rsatkichlar guruhlariga mos ravishda quyidagicha miqdorlarda aniqlandi: 5,42±1,82 T/l; 5,66 ±1,69 T/l; 5,84±0,02 T/l; 6,21±0,28 T/l va 5,25±0,02 T/l. Homiladorlikning 21 kunida, birinchi guruhdagi eritrotsitlarning o'rtacha miqdori 4,9±0,02 T/l; ikkinchi guruhda: 5,2± 0,07 T/l ga, uchinchi guruhda: 5,4 ±0,01 T/l; to'rtinchi va beshinchi guruhda: 5,97±0,12 / 4,7±0,02 T/l ni tashkil etdi. Homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib, odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi eritrotsitlarning o'rtacha miyona ko'rsatkichi 6,06±0,005 T/l atrofida bo'ladi. Ushbu miqdor temir qo'shib berilgan guruhda 6,37± 0,01 T/l

ni, rux preparatlari berilganda $5,93 \pm 0,01$ g/l ni, temir va rux preparati berilganda $6,51 \pm 0,12$ T/l ni, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $5,87 \pm 0,01$ g/l ni tashkil etdi.

Oziqlantirish turidan qat'iy nazar, homiladorlikning muddatlari oshgani sari eritrotsitlar miqdori ma'lum darajada kamayib borishi va homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib (28 kunligida), eritrotsitlar miqdorining sezilarli darajada ortishi kuzatildi (4.3-rasm).



4.3-rasm. Homiladorlikning turli davrlarida eritrotsitlar miqdorining dinamikasi.

Shunday qilib, homiladorlikning 7 kunlik muddatidagi qon tarkibidagi eritrotsit ko'rsatkichi, homiladorlikning 14- va 21- kunlik muddatlariga qadar kamayib boradi, homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib eritrotsitlar miqdorining ortishi aniqlandi. Bu esa homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib, qon hosil bo'lish jarayonining kuchayganligi va tug'ruq oldi holatini ifodalaydi.

Tadqiqot jarayonida barcha tajriba guruhlarida olingan gemoglobin miqdorining ko'rsatkichlari quyidagi (4.2.2) jadvalda keltirilgan.

Jadval 4.2.2

Homiladorlikning turli davrlarida gemoglobinining ko'rsatkichlari

№	Homiladorlik muddatlari	Normal oziqa berilganda (Hb g/l)	Temir preparati berilganda (Hb g/l)	Rux preparati berilganda (Hb g/l)	Temir va rux berilganda (Hb g/l)	Etarli bo'lmagan oziqada (Hb g/l)
1	7 kunlik	144,8±8,13	145,9±4,5	143,5±4,27	155,4±3,05	135,22±5,60
2	14 kunlik	128,03±3,47* **	133,5±3,75** *	134,46±2,78* **	149,5±0,87** *	133,6±1,24** *
3	21 kunlik	123,6± 2,87***^^^	128,41±3,13* **^^^	128,4±3,31** *^^^	146,5±1,0** *^^^	119,2± 0,02***^^^
4	28 kunlik	140,12±2,35* **^^^ooo	144,7±2,38** *^^^ooo	126,1±2,60** *^^^ooo	156,6±1,09** *^^^ooo	115,5±2,16** *^^^ooo

Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - P<0,05, *** - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

№ 4.2.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, homiladorlikning 7-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruh qon tarkibidagi gemoglobinining o'rtacha miqdori 144,08±8,13 g/l, 14 kunida 128,03±3,47 g/l, 21-kunida 123,6± 2,87 g/l, 28 kunida 140,12±2,35 g/l ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich temir preparatlari berilganda 145,9±4,5 g/l; 133,5±3,75 g/l; 128,41±3,13 g/l; 144,7±2,38 g/l miqdorda aniqlandi. Rux preparatlari berilgan guruhda gemaglobin miqdori o'rtacha 143,5±4,27 g/l; 134,46±2,78 g/l; 128,4±3,31 g/l; 126,1±2,60 g/l ga teng ekanligi qayd etildi. Temir va rux preparati berilgan guruhda mos ravishda 155,4±3,05 g/l; 149,5±0,87 g/l; 146,5±1,0 g/l; 156,6±1,09 g/l ni tashkil etdi. Etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda 135,22± 5,60 g/l; 133,6±1,24 g/l; 119,2± 0,02 g/l; 115,5±2,16 g/l aniqlandi.

SHunday qilib, homiladorlikning 7 kunlik muddatdagi qon tarkibidagi gemoglobin miqdori homiladorlikning oxirgi muddatiga qadar sezilarli darajada kamayib boradi. Odatiy ozuqa, odatiy ozuqaga temir qo'shib berilga, odatiy ozuqaga temir va rux preparati qo'shib berilgan guruhlarda oxirgi muddatga kelib, gemoglobin miqdori eritrotsitlar soniga parallel ravishda keskin ortdi. Odatiy ozuqasiga rux preparati qo'shib berilgan va etarli bo'lmagan ozuqa berilgan guruhda esa gemoglobin ko'rsatkichining kamayishi kuzatildi. Bu esa gemning sintezi uchun organizmda temirning kamligi bilan xarakterlanadi

§4.3. Tajriba guruhlarida qondagi oqsil va gemotokrit miqdorining ko'rsatkichlari

4.3.1-jadval

Homiladorlikning turli davrlarida umumiy oqsil ko'rsatkichlari


№	Homiladorlik muddatlari	Normal oziqa berilganda (g/l)	Temir preparati berilganda (g/l)	Rux preparati berilganda (g/l)	Temir va rux berilganda (g/l)	Etarli bo'lmagan oziqada (g/l)
1	7 kunlik	63,1±1,10	61,9±1,67	61,1±1,9	61,69±1,38	62,7±1,28
2	14 kunlik	58,6±1,86** *	53,4±1,79** *	57,4±1,79** *	57,6±1,27** *	49,5±1,78** *
3	21 kunlik	54,9±1,74** *^^^	50,3±0,64** *^^^	54,4±0,79** *^^^	55,3±0,9*** ^^^	44,5±0,88** *^^^
4	28 kunlik	57,6±1,97** *^^^ooo	56,4±1,81** *^^^ooo	57,5±1,78** *^^^ooo	58,4±1,46** *^^^ooo	45,9±1,31** *^^^ooo

Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - P<0,05, *** - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

№4.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, homiladorlikning dastlabki muddatida odatiy ozuqa berilgan guruhda umumiy oqsil ko'rsatkichi 63,1±1,10 g/l ga teng ekanligi aniqlanadi. Temir; rux; temir va rux berilgan guruhlarda 61,9±1,67 g/l; 61,1±1,9 g/l ga; 61,69±1,38 g/l, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda 62,7±1,28 g/l ni tashkil etdi.

Homiladorlikning ikkinchi muddatida bu ko'rsatkichlar mos ravishda $58,6 \pm 1,86$ g/l; $53,4 \pm 1,79$ g/l; $57,4 \pm 1,79$ g/l; $57,6 \pm 1,27$ g/l; $49,5 \pm 1,78$ g/l ni tashkil etgan bo'lsa, 21 kunlik muddatda $54,9 \pm 1,74$ g/l; $50,3 \pm 0,64$ g/l; $54,4 \pm 0,79$ g/l; $55,3 \pm 0,9$ g/l; $44,5 \pm 0,88$ g/l aniqlandi.

Homiladorlikning oxirgi muddatida esa qondagi bu ko'rsatkichlar $57,6 \pm 1,97$ g/l; $56,4 \pm 0,64$ g/l; $57,5 \pm 1,78$ g/l ni, temir va rux preparati berilganda $58,4 \pm 1,46$ g/l, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda $45,9 \pm 1,31$ g/l ni tashkil etdi (4.4-rasm).



4.4-rasm. Tajriba guruhlarida qondagi oqsil va gematokrit miqdorining ko'rsatkichlari

Aniqlandiki, homiladorlikning dastlabki muddatiga nisbatan umumiy oqsil ko'rsatkichi ikkinchi muddatda kamaydi, uchinchi va oxirgi muddatlarda uning ko'rsatkichlari oshib boradi. Bu esa ona va bola organizmida temirning oqsilli birikmalariga talabning ortishi bilan tushintirilishi mumkin.

Turlicha oziqlantirilgan guruhlarda homiladorlikning turli muddatlarida aniqlangan gematokrit miqdorining ko'rsatkichlari 4.3.2-jadvalda keltirilgan.

4.3.2-jadval

Homiladorlikning turli davrlarida gematokrit miqdorining ko'rsatkichlari

№	Homiladorlik muddatlari	Normal oziqa berilganda %	Temir preparati berilganda %	Rux preparati berilganda %	Temir va rux berilganda %	Etarli bo'lmagan oziqada %
1	7 kunlik	44,9±0,84	47,1±1,37	43,47±1,20	47±1,19	46,5±1,30
2	14 kunlik	40,04±0,67** *	39,8±0,94***	42,9±0,30***	41,98±0,8***	41,2±0,40***
3	21 kunlik	36,2±0,54*** ^^^	37,1±0,1***^ ^^	39,4 ±0,41***^^^	38,57±0,44** *^^^	35,6±0,37*** ^^^
4	28 kunlik	40,6±21,3*** ^^^ooo	37,3±18,4*** ^^^ooo	41,25±22,7** *^^^ooo	41,55±0,67** *^^^ooo	37,7±18,56** *^^^ooo

Eslatma: * - 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (* - P<0,05, *** - P<0,001); ^ - 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001); ° - 3-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar sezilarli (° - P<0,05, °° - P<0,01, °°° - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, homiladorlikning boshlang'ich davrida me'yoriy oziqlantirilgan guruhda qon tarkibidagi gematokrit ko'rsatkichning o'rtacha miqdori 44,9±0,84 % ni, temir preparatlari berilganda 47,1±1,37 % ni, rux preparatlari berilganda 43,47±1,20 % ni, temir va rux preparati berilganda 47±1,19 % ni, kam ozuqa berilgan guruhda 46,5±1,30 % ni tashkil etdi.

Homiladorlikning 14-kunida bu ko'rsatkichlar quyidagi foizlarda aniqlandi: 40,04±0,67; 39,8±0,94; 42,9±0,30; 41,98±0,8; 41,2±0,40.

Homiladorlikning 21-kunida birinchi guruhda quyonlarda gematokrit ko'rsatkichning o'rtacha miqdori 36,2±0,54 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich ikkinchi guruhda (temir preparati berilganda) 37,1±0,1 % ga, uchinchi guruhda (rux preparati berilganda) 39,4 ±0,41 % ga, to'rtinchi guruhda (temir va rux

preparati berilganda) $38,57 \pm 0,44$ %, so'nggi guruhda (etarli bo'lmagan ozuqa) $35,6 \pm 0,37$ % ga tengligi qayd etildi.

Homiladorlikning 28-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi gematokrit ko'rsatkich $40,6 \pm 21,3$ %, Bu ko'rsatkich temir qo'shilgan guruhda $37,3 \pm 18,4$ % ga, Zn preparati berilganda $41,25 \pm 22,7$ % ga, temir va rux preparati berilganda $41,55 \pm 0,67$ %, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $37,7 \pm 8,56$ % miqdorda aniqlandi.

SHunday qilib, homiladorlikning 7 kunlik muddatdagi qon tarkibidagi gematokrit ko'rsatkichi, homiladorlikning 14- va 21- kunlik muddatlariga qadar kamayib boradi, homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib eritrotsitlar miqdorining ortishi bilan gematokrit ko'rsatkich miqdori ham ortishi aniqlandi.

§4.4. Tajriba guruhlarida qondagi HIF-1 α oqsilining ko'rsatkichlari


Homiladorlikning 7-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qon tarkibidagi HIF-1 α ning o'rtacha miqdori $0,23 \pm 0,002$ ng/ml, Fe qo'shilganda $13 \pm 0,005$ ng/ml, Zn qo'shilganda $0,17 \pm 0,003$ ng/ml ni tashkil etadi. Temir va rux qo'shib berilganda $0,07 \pm 0,003$ ng/ml, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $0,29 \pm 0,019$ ng/ml ni tashkil etdi.

Homiladorlikning 14-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi HIF-1 α oqsilining o'rtacha miqdori $0,34 \pm 0,004$ ng/ml ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich temir preparati berilganda $0,24 \pm 0,002$ ng/ml ga, rux preparatlari berilganda $0,33 \pm 0,018$ ng/ml ga, temir va rux qo'shib berilganda $0,18 \pm 0,003$ ng/ml, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda $0,37 \pm 0,03$ ng/ml ga tengligi kuzatildi.

Homiladorlikning 21-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhlarda qon tarkibidagi HIF-1 α ning o'rtacha miqdori $0,37 \pm 0,004$ ng/ml ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich temir berilganda $0,21 \pm 0,002$ ng/ml ga, rux preparatlari berilganda $0,29 \pm 0,004$ ng/ml ga, temir va rux qo'shib berilganda $0,21 \pm 0,002$ ng/ml, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $0,43 \pm 0,04$ ng/ml ga tengligi qayd qilindi.

Homiladorlikning 28-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi HIF-1 α ning o'rtacha miqdori $0,54\pm0,002$ ng/ml , temir qo'shib berilgan guruhda $0,31\pm0,04$ ng/ml ga, rux qo'shib berilgan guruhda $0,48\pm0,006$ ng/ml ga, temir va rux qo'shib berilganda $0,27\pm0,003$ ng/ml, me'yorida oziqlantirilgan guruhda $0,69\pm0,005$ ng/ml ekanligi aniqlandi.

Homiladorlikning 7- kuniga kelib, qondagi HIF-1 α ning miqdori dastlabki kunlarga nisbatan ortishi kuzatildi. Homiladorlikning 14 kuniga kelib, HIF-1 α ning qondagi miqdori 7 kunlikka nisbatan yanada ortishi qayd qilindi. Homiladorlikning 21 kunida qondagi temir miqdori 14 kunlikka nisbatan keskin kamaymasligi tufayli qondagi HIF-1 α ning miqdori kamaydi. Homiladorlikning 28 kuniga kelib, qonda HIF-1 α miqdori yana oshganligi aniqlandi. Bu esa homiladorlikning muddatlari oshgani sayin homila organlarining shakllanishi va rivojlanishi kuchayishi hamda tug'ruq muddatiga yaqinlashishi bilan bevosita bog'liq kompensator mexanizmlarni ko'rsatadi (4.5-rasm).



4.5-Rasm. Homiladorlikning turli muddatlarida har xil oziqlantirilgan homilador quyonlar qonidagi HIF-1 α ko'rsatkichlarining oshish miqdori.

SHunday qilib, qondagi HIF-1 α miqdori homilaning kislorodga bo'lgan ehtiyojiga nisbatan kamayib-ko'payib turishi kuzatildi. Temir miqdori normada bo'lganda ham HIF-1 α miqdori ham oshadi. Bunday holat homila organizmining jadal rivojlanishi tufayli a'zo va to'qimalarining kislorodga bo'lgan ehtiyojining tabiiy ravishda oshishi bilan izohlanadi. Jumladan, temir miqdorining kamayishi bilan HIF-1 α miqdorining oshishi uning temir bilan bog'lanishini ko'rsatmaydi, aksincha suyak ko'migida gemoglobinni temir bilan bog'lanishini faollashtiradi, ya'ni HIF-1 α eritropoezni kuchaytiradi. SHu bilan birga uning haddan tashqari qonda ko'p aniqlanishi ona organizmi to'qimalarida kislorod ochligining oshib borayotganligidan dalolat beradi. HIF-1 α miqdoriga qarab onadagi gipoksiya darajasini baholab turish mumkin. SHuning uchun bizning tadqiqotlarimizda

homiladorlikning 7-kunidan 14-kunlikkacha HIF-1 α miqdorining oshishi, 14-kunlikdan 21 kunlik muddatda qisman pasayishi, so'ngra asta sekinlik bilan ortib borishi kuzatildi. Bu esa bir tomondan homilaning kislorodga bo'lgan ehtiyoji oshishi bilan tushuntirilsa, ikkinchi tomondan yo'ldosh to'qimasining tug'ilish oldidan o'z faoliyatini yakunlayotganligi bilan tushuntiriladi.

MUHOKAMA

Temirning metabolizmi ko'p yillardan buyon butun dunyo tadqiqotchilarida katta qiziqish uyg'otib kelayotgan metabolizmlardan biri sanaladi. Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ushbu metabolizmini bir qator xususiyatlari yoritilgan bo'lsada, homiladorlikning muddatlariga xos tomonlari kamroq yoritilgan. Metabolitik jarayonlarda temirning biologik funksiyalari gemoglobin va mioglobin ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ularning o'ziga jihatli Fe^{2+} oksidlanishini buzmasdan kislorod bilan tranzit birikmaning shakllantirishidir. Gemoglobin eritrotsitlar tarkibida joylashib, O_2 o'pkadan to'qimalarga, karbonat anhidridni to'qimadan o'pkaga o'tkazadi. Mioglobin mushak to'qimalarida joylashadi va intensiv mushak ishida kislorodni hujayra ichidagi mitoxondriyalarga etkazib beradi. Sog'lom organizmda 3-4 gr temir (4 gr erkaklarda, 3 gr ayollarda) bo'lib, uning asosiy qismi, qon hujayralarida va suyak ko'migida bo'ladi. Temirning asosiy qismi gemoglobin hosil bo'lishi uchun va ma'lum qismi hujayra oqsillarini sintez qilish uchun sarflansa, qolgan qismi transferrin bilan bog'langan holda qonda aylanadi [74; 304 b.]. Erkaklarda kunlik temir yo'qotish taxminan 1 mg, ayollarda esa 2 mg ni tashkil etadi. Ushbu miqdorning $3/2$ qismi o't suyuqligi bilan oshqozon ichak orqali chiqarib yuboriladi. Ko'chib tushgan epiteley hujayralari va qon tarkibidagi eritrotsitlar bilan va $3/1$ qism siydik bilan va epidermisning diskvوماتsiyasi bilan yo'qotiladi.

Homiladorlik vaqtida temir etishmovchiligi oshishining sababi homilador ayolda aynan temir moddasiga bo'lgan extiyojning oshishi bilan bog'lik. Homiladorlikning 2-3 trimestrida temirga bo'lgan talab 5,6 - 6 g/sut ga etadi, bunda yo'ldosh va homilaning o'sishi uchun (350-380 mg), eritropoezning kuchayishi va boshqa sarflanishlar uchun (450-550 mg), bachadonning o'sishi uchun (150-200 mg) miqdorda temir moddasi sarflanadi [78; 45-52 b.]

Oziqlantiruvchi qo'shimchalar bilan birgalikda zamonaviy ovqatlanish, shuningdek, qo'shimcha temir manbalaridan foydalanish temir tanqisligining umumiy kasalligi va uning kuchayishini kamaytirdi. SHunga qaramay, ayrim aholi guruhlarida, xususan, ayollarda temir ta'minoti muammosi saqlanib qolmoqda.

Oylik qon yo‘qotish va bola tug‘ish tufayli butun dunyo bo‘ylab tug‘ish yoshidagi ayollarning 51% dan ortig‘ida temir zahiralari etarli emas yoki umuman yo‘q (Mehta, A.S. et.al., 2017).

Homiladorlik davrida temir tanqisligi kamqonligi rivojlanishining oldini olish uchun temirga qo‘shimcha ehtiyoj (homiladorlikning butun davri uchun taxminan 1000 mg) to‘ldirilishi kerak (Trubnikova L. I., 2018).

Ferritin uchun tahlil standartlarga kiritilmagan, shuning uchun kelajakdagi ona temir tanqisligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin. Agar ayolda past ferritin bo‘lsa, konsepsiyadan oldin temir o‘z ichiga olgan preparatlar kursi buyuriladi. Bu nafaqat kelajakdagi onaning o‘zini homiladorlik paytida o‘zini yomon his qilishdan qutqaradi, balki hayotning birinchi yilida bolaning normal rivojlanishiga yordam beradi. Barcha xalqaro standartlarga ko‘ra, ferritin tahlili temir tanqisligini aniqlash uchun oddiy diagnostik testdir. Ammo bu tahlil standartlarda emas, ginekolog uni buyurishi mumkin yoki umumiy qon tahlili bilan cheklanishi mumkin. Ko‘pincha, umumiy qon tahlili gemoglobinda tashvish tug‘dirmaydi, ammo temir zahiralari tugaydi. 2-trimestrda temirning keskin etishmasligi boshlanadi, chunki organizm o‘sib borayotgan yo‘ldoshni ta‘minlab, ko‘proq qon hujayralarini yaratishi kerak (chaqaloq ko‘proq kislorod olishi uchun). So‘ngra tana ferritin zahiralardan temir oladi. Oziq-ovqat, hatto ayol ikki kishi uchun ovqatlansa ham, kerakli miqdorda temirni ta‘minlamaydi.

Xoxlova N.S va Semenyutin V. V. (2020) tomonidan homilador quyonlar ustida minerallar almashinuvini o‘rganish borasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda temirning ko‘rsatkichlarini $23,70 \pm 4,66$ $12,30 \pm 3,05$ $16,86 \pm 3,39$ mkm ekanligi aniqlangan.

Janubiy -sharqiy Osiyoda 2500 ta bolalarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda temir va rux preparatini birga qo‘llash yoki alohida qo‘llashni bolalarning o‘sish va psixomotor rivojlanishiga ta‘sirini o‘rgandilar. Keyinchalik Indoneziyada 650 ta bolalarda temir va ruxni turli nisbatlarda qo‘llashning organizm o‘sishi va rivojlanishiga ta‘siri o‘rganildi va bunda preparatlarni birga qo‘llash na o‘sish, na

psixomotor rivojlanishga ta'siri kuzatilmadi (I.YU. Torshin , O.A. Gromova, T.R. Grishina 2010, 2019)

Bizning tadqiqotlarimizda aniqlandiki, ozuqaning miqdori va tarkibiga ko'ra quyonlar homiladorligining 7-14-21-28 kunlarida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi temirning o'rtacha miqdori $31,2 \pm 0,5$; $29,2 \pm 1,9$; $28,6 \pm 1,4$; $22,5 \pm 0,6$ mkmol/l ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich temir qo'shib berilganda $31,1 \pm 0,5$; $29,5 \pm 1,5$; $30,1 \pm 1,1$; $27,3 \pm 1,0$ mkmol/l ga, rux preparatlari qo'shib berilganda $30,5 \pm 1,1$; $27,5 \pm 1,3$; $28,2 \pm 1,1$; $24,6 \pm 1,0$ mkmol/l ga, temir va rux preparati qo'shib berilgan quyonlarda $31,4 \pm 1,0$; $30,6 \pm 1,3$; $30,5 \pm 0,7$; $29,2 \pm 1,0$ mkmol/l ga, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $31,4 \pm 0,8$; $26,4 \pm 2,0$; $24,1 \pm 0,4$; $16,9 \pm 0,5$ mkmol/l ga tengligi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilganda 7 kunlik muddatga nisbatan, oziqlantirish turidan qat'iy nazar qondagi temirning miqdori o'rtacha 1,8 barobar kamayib borishi qayd etildi. Biroq temir va rux berilgan guruhda temir miqdorining kamayish darajasi boshqa guruhlariga nisbatan kam foizni tashkil etdi. Oxirgi muddatida birinchi 7 kunlik muddatga nisbatan, odatiy oziqlantirishda qondagi temirning miqdori o'rtacha 8,7 mkmol/l ga kamayib borishi qayd etildi. Homilador quyonlarga etarlicha ozuqa berilmagan guruhda homiladorlikning boshlang'ich muddatiga nisbatan 14 kunlik muddatga kelib temir miqdorining keskin darajada kamayishi kuzatiladi. Ushbu ko'rsatkichlar homiladorlikning 21 kunlik muddatidagi ko'rsatkichlar bilan deyarli bir xil bo'ladi. Qondagi temir miqdorining 21 kunlik muddatda pasayib ketmasligini ushbu muddatda homila rivojlanishining vaqtinchalik to'xtashi bilan izoxlanadi. Homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib, qondagi temir miqdorining keskin pasayishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida temirga bo'lgan ehtiyojning oshishi tufayli kelib chiqadi.

Temir preparati berilganda temir miqdorining qondagi ko'rsatkichi muddatlar kesimida to'liqsimon ko'rinishda ifodalanadi. Jumladan, homiladorlikning 14-kunida qondagi temir miqdori pasayadi, 21 kunlikda oshadi va oxirgi muddatda yana kamayishi kuzatiladi. Homiladorlikning 21-kunida qondagi temir miqdorini oshishini quyonlarning homilalarida rivojlanishning bir

muddat to'xtashi hisobiga kelib chiqadi. Homiladorlikning oxirgi muddatlarida homila rivojlanishi davom yetganligi qondagi temir miqdorini tushib kelishiga olib keladi.

Rux berilgan quyonlar homiladorligining 14- va 28- kunida qondagi temir miqdorining pasayishini ushbu muddatda homilada organogenezning avj olishi va homila rivojlanishining jadal kechishi tufayli temirning ko'p miqdorda onadan homilaga safarbar etilishi bilan izoxlash mumkin. Bu esa rux preparatlarini qo'llash homiladorlar qonida temir miqdorining barqaror saqlanishida muhim rol o'ynamasligini anglatadi. Biroq, rux preparatlarini qo'llash homiladorlarda temir metabolizmini yaxshilash va kamqonlikni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari tadqiqotlarimizda olingan natijalarga ko'ra homiladorlikning 21 kunlik muddatida rux preparatlarini qo'llash samarasiz ekanligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, temir va rux berilgan quyonlar homiladorligining 14- va 21- kunida qondagi temir miqdori ko'rsatkichlarining deyarli o'zgarmasligini ushbu muddatlarda ruxning temir metabolizmiga samarasiz ekanligi bilan izohlash mumkin.

Tajriba guruhlarida qondagi ferritin miqdorining o'zaro ko'rsatkichlari:

Homiladorlikning 7-kunida odatiy oзуqа bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi ferritinning o'rtacha miqdori $103,7 \pm 10,6$ mkg/l temir preparatlari berilgan guruhda $105,9 \pm 16,9$ mkg/l ni tashkil etgan bo'lsa, rux preparatlari qo'shib berilgan guruhda $103,1 \pm 12,5$ mkg/l ga, temir va rux preparati qo'shib berilgan quyonlarda $107,9 \pm 16,9$ mkg/l ga, etarli bo'lmagan oзуqа bilan oziqlantirilgan quyonlarda $102,2 \pm 12,6$ mkg/l ga tengdir. Ushbu ko'rsatkichlar homiladorlikning 14-kuniga kelib, $99,3 \pm 4,8$; $105,1 \pm 4,6$; $102,3 \pm 4,2$; $104,1 \pm 4,6$; $85,1 \pm 8,6$ mkg/l ni tashkil etadi. Homiladorlikning 21 kunligi va 28 kunligida, ushbu omillarning o'rtacha miqdori mos ravishda $89,3 \pm 2,85/63,7 \pm 1,30$; $97,6 \pm 2,43/74,2 \pm 2,48$; $92,7 \pm 2,05/61,1 \pm 1,28$; $101,6 \pm 2,43/89,3 \pm 2,48$; $75,4 \pm 2,92/58,4 \pm 1,25$ mkg/l ga tengdir.

Homiladorlikning turli muddatlarida ozuqaning miqdori va tarkibiga bog'liq holda quyonlar periferik qonidagi ferritin ko'rsatkichlari homiladorlik muddatlari oshgani sari sekin kamayib boradi, biroq, temir va rux qo'shib berilgan guruhlarda uning miqdori oshishi kuzatilib, oxirgi 21-28 kunlik muddatga kelib, eritropoez va gem sintezi uchun katta miqdorda sarflanadi. Qon zardobida ferritin miqdori keskin kamayadi.

Shunday qilib, homiladorlikning muddatlari oshgan sari oziqlanish turiga bog'liq holda ferritin miqdorining kamayib borishi kuzatildi. Homiladorlikning 7 kunlik muddatidan 14 kunlik muddatigacha ferritin miqdorining kamayishi oralig'idagi farq kamchilikni tashkil qildi. Homiladorlikning 21 va 28 kunlari ferritin ko'rsatkichlarining keskin pasayib ketishi qayd etiladi. Bu esa o'z navbatida homiladorlikning oxirgi muddatlarida homilaning to'liq rivojlanishi va temirga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida zaxiradagi temir miqdorining sarflanishidan dalolat beradi.

Tajriba guruhlarida qondagi transferrin miqdorining o'zaro ko'rsatkichlari:

Olib borilgan kuzatuv guruhlarida transferrin miqdorining qondagi ko'rsatkichlari homiladorlikning muddatlari oshgani sari mos ravishda oshib borishi qayd etildi.

Homiladorlik aniqlangan so'ng 14-kuniga kelib, odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi transferrinning o'rtacha miqdori homiladorlikning 7 kunlik muddatiga nisbatan 13 % ga oshganligi qayd etildi. Bu ko'rsatkich temir preparatlari berilganda 11 % ni tashkil etdi. Rux preparati berilganda va ozuqa etarli bo'lmagan guruhdagi kuzatuvlarda 7 kunlikka nisbatan homiladorlikning 14-kuniga kelib 12% ga, temir va rux qo'shib berilganda 10 % oshganligi aniqlanadi.

Homiladorlikning 21/28 kunida ushbu ko'rsatkichlar homiladorlikning 7 kuniga nisbatan oziqlanish turiga mos ravishda:

14/15 %;

12/13%;

13/15%;

11/12%;

14/ 18% ni tashkil etdi.

Homiladorlikning muddatlari oshib borgani sari homilador quyonlarning qonidagi transferrin konsentratsiyasi sezilarli oshib borganligi kuzatuvlarimizda qayd qilindi. Bu esa homiladorlik muddatlari oshib borishi bilan temirga bo'lgan talabning ham ortib borishi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, homiladorlikning boshlang'ich (7 kunlik) muddatida odatiy ozuqasiga temir preparati qo'shib berilgan guruhlarda transferrin miqdorining oshishi, rux preparati berilgan guruhlarda esa odatiy ozuqa berilgan guruhga nisbatan kamayishi va etarlicha ozuqa berilmagan guruhda uning miqdori oshishi aniqlandi. Homiladorlikning qolgan muddatlarida barcha guruh kuzatuvlarida transferrin miqdorining oshib borishi kuzatildi. Biroq, temir va rux preparatlari berilgan guruhda boshqa guruhlariga nisbatan transferrin miqdori kichik ko'rsatkichlarda oshib borishi qayd etildi. Bu holatni temir miqdorini tashqaridan ko'p tushishi va rux ta'sirida so'rilishining jadallashishi bilan tushuntirish mumkin. Homiladorlikning muddatlari oshgani sari barcha kuzatuv guruhlarida transferrin miqdorining oshib borishi kuzatildi. Buni homiladorlikning muddatlari oshgani sari homila rivojlanishi, qon yaratuvchi a'zolari faollashishi, metabolism va fermentativ jarayonlar kuchayishi hisobiga ona organizmidan ko'p miqdordagi temir zahiradan sarflanadi, mana shu sabab zahiradagi temir miqdorini to'ldirish uchun so'rilish jarayoni va tashuvchi oqsillar miqdori hamda ularning faolligi ortishi tufayli temir metabolismini yaxshilanishi bilan izohlash mumkin.

Tajriba guruhlarida qondagi eritrotsit va gemoglobin miqdorining ko'rsatkichlari:

Ozuqaning tarkibidan qat'iy nazar homiladorlikning muddatlari oshgani sayin eritrotsit miqdorining homiladorlikning oxirgi muddatiga qadar kamayib, oxirgi muddatda (28 kunlik) ortishi va gemoglobin miqdorini kamayib borishi kuzatildi. homiladorlikning 7-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruhda qon tarkibidagi eritrotsitlarning o'rtacha miqdori $6,21 \pm 0,17$ T/l ni, temir preparati

berilganda $6,33 \pm 0,15$ T/l ga, rux preparatlari berilganda $6,19 \pm 0,12$ T/l ga, temir va rux preparati berilganda $6,42 \pm 0,2$ T/l ga, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $6,14 \pm 0,013$ T/l ga teng miqdori aniqlandi. Homiladorlikning 14 kuniga kelib, bu ko'rsatkichlar guruhlariga mos ravishda quyidagicha miqdorlarda aniqlandi: $5,42 \pm 1,82$ T/l; $5,66 \pm 1,69$ T/l; $5,84 \pm 0,02$ T/l; $6,21 \pm 0,28$ T/l va $5,25 \pm 0,02$ T/l. Homiladorlikning 21 kunida, birinchi guruhdagi eritrotsitlarning o'rtacha miqdori $4,9 \pm 0,02$ T/l; ikkinchi guruhda: $5,2 \pm 0,07$ T/l ga, uchinchi guruhda: $5,4 \pm 0,01$ T/l; to'rtinchi va beshinchi guruhda: $5,97 \pm 0,12$ / $4,7 \pm 0,02$ T/l ni tashkil etdi. Homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib, odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlar qoni tarkibidagi eritrotsitlarning ko'rsatkichi $6,06 \pm 0,005$ T/l ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich temir qo'shib berilgan guruhda esa $6,37 \pm 0,01$ T/l ni, rux preparati qo'llanilganda $5,93 \pm 0,01$ T/l ni, temir va rux preparati berilganda $6,51 \pm 0,12$ T/l ni, etarli bo'lmagan ozuqa bilan oziqlantirilgan quyonlarda $5,87 \pm 0,01$ T/l ni tashkil etdi.

Homiladorlikning muddatlari oshgani sari eritrotsitlar miqdori ma'lum darajada kamayib borishi va homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib (28 kunligida), eritrotsitlar miqdorining sezilarli darajada ortishi kuzatildi. SHunday qilib, homiladorlikning 7 kunlik muddatidagi qon tarkibidagi eritrotsit ko'rsatkichi, homiladorlikning 14- va 21- kunlik muddatlariga qadar kamayib boradi, homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib eritrotsitlar miqdorining ortishi aniqlandi. Bu esa homiladorlikning oxirgi muddatiga kelib, qon hosil bo'lish jarayonining kuchayganligi va tug'ruq oldi holatini ifodalaydi.

Homiladorlikning 7-kunida odatiy ozuqa bilan oziqlantirilgan guruh qon tarkibidagi gemoglobinning o'rtacha miqdori $144,08 \pm 8,13$ g/l, 14 kunida $128,03 \pm 3,47$ g/l, 21-kunida $123,6 \pm 2,87$ g/l, 28 kunida $140,12 \pm 2,35$ g/l ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich temir preparatlari berilganda $145,9 \pm 4,5$ g/l; $133,5 \pm 3,75$ g/l; $128,41 \pm 3,13$ g/l; $144,7 \pm 2,38$ g/l miqdorda aniqlandi. Rux preparatlari berilgan guruhda gemaglobin miqdori o'rtacha $143,5 \pm 4,27$ g/l; $134,46 \pm 2,78$ g/l; $128,4 \pm 3,31$ g/l; $126,1 \pm 2,60$ g/l ga teng ekanligi qayd etildi. Temir va rux preparati berilgan guruhda mos ravishda $155,4 \pm 3,05$ g/l; $149,5 \pm 0,87$ g/l; $146,5 \pm 1,0$ g/l; $156,6 \pm 1,09$

